

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS  
TA’LIM VAZIRLIGI  
AJINIYOZ NOMIDAGI NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA  
INSTITUTI**



**ELLIKQAL'A PEDAGOGIKA FAKULTETI  
IJTIMOIY VA GUMANITAR FANLAR KAFEDRASI  
5111200 – o‘zbek tili va adabiyoti bakalavr ta’lim yo‘nalishi  
4- “A” kurs talabasi**

**AMINOV AKBARJAN RAMANBERGAN O‘G‘LINING**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Mavzu: «LUQMON BO‘RIXON HIKOYALARIDA SYUJET VA  
KOMPOZITSIYA BUTUNLIGI»**

|                 |                       |
|-----------------|-----------------------|
| Talaba:         | A.Aminov              |
| Ilmiy rahbar:   | f.f.f.d. X.To‘liboyev |
| Kafedra mudiri: | f.f.f.d. X.To‘liboyev |

*Ijtimoiy va gumanitar fanlar kafedrasi yig‘ilishining 2021- yil 20-  
maydagi 9- bayonnomasi bilan himoyaga tavsiya qilindi.*

**NUKUS – 2021**

## **Davlat attestatsiya komissiyasi**

### **QARORI:**

5111200 – o‘zbek tili va adabiyoti bakalavr ta’lim yo‘nalishi 4-«A» kurs talabasi Aminov Akbarjon Ramanbergan o‘g‘li “Luqmon Bo’rixon hikoyalarida syujet va kompozitsiya butunligi” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga «\_\_\_\_» ball («\_\_\_\_%») qo‘yilsin.

«\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2021- yil

**DAK kotibi:**

**B.Madirimov**

|         |                                                                               |          |
|---------|-------------------------------------------------------------------------------|----------|
|         | <b>MUNDARIJA</b>                                                              |          |
|         | <b>KIRISH .....</b>                                                           | <b>4</b> |
| I BOB   | <b>LUQMON BO'RIXONNING HOZIRGI ADABIY JARAYONDA<br/>TUTGAN O'RNI.....</b>     | 10       |
| II BOB  | <b>II BOB. YOZUVCHI HIKOYALARINING G'OYAVIY-BADIIY<br/>XUSUSIYATLARI.....</b> | 10       |
| III BOB | <b>III BOB. ADIB ASARLARIDA SYUJET TABIATI.....</b>                           | 29       |
|         | <b>XULOSA</b>                                                                 | 44       |
|         | <b>UMUMIY XULOSALAR</b>                                                       | 47       |

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** Milliy istiqlol sharofati bilan badiiy adabiyotda o'ziga xoslik ko'zga tashlana boshlandi. Bu o'ziga xoslikning yuzaga kelishida albatta, buyuk O'zbekistonning dunyoga yuz ochishi bilan belgilanadi, albatta! Negaki, mustabid tuzum davrida jahon adabiyotiga bo'ylashadigan asarlar yaratishda yozuvchilar biroz hadik bilan qo'liga qalam olardilar. Ayniqsa, sho'ro davri adabiyoti bu kabi masalalarni to'laligicha tasdiqlaydi. Aytish joiz, milliy istiqlol davri nasri har qachongidan ham shallanib, boyib borayotgani fikru mulohazalarimizdan shahodat beradi.

Prezidentimiz SH.M.Mirziyoev o'zini jamiyatimiz, yoshlarimiz ma'naviyati, g'oyaviy-mafkuraviy tarbiyasi uchun mas'ul deb bilgan barcha insonlar, ayniqsa, ijodkor ziyolilarning haqqoniy so'zi: "Katta ta'sir kuchiga ega... Ular uzoqni ko'zlab, harakat qilishi, kerak bo'lsa, hayotdan bir qadam oldinda yurishi"<sup>1</sup> lozim, deya ta'kidladilar. Darhaqiqat, ushbu ibratli purma'no fikrlarning o'ziyoq bizning bugungi adabiyotimizda yaratilish lozim bo'lgan mustaqil yurt qahramonini har jihatdan murakkab va ibratli qilib ko'rsatish uchun asos vazifasini ko'rsatmoqda. To'g'ri, har bir asarda yangidan-yangi voqeliklar qalamga olinadi. Bu tabiiy hol! Lekin o'sha yaratilarda qahramon masalasi to'la-to'kis baholi qudrat hal qilinyaptimi? Hamma gap shunda. Chunki badiiy isar insonni kashf qiladi. Inson kashf qilingandagina – tafakkur, borliq va yashash haqidagi sir-bilimlardan kishi to'laligicha voqif bo'ladi, yoki shu pog'onaga asta-sekinlik bilan ko'tarila boradi. Shuni aytish joizki, milliy istiqlol qo'lga kiritilgan kundan boshlab, adiblarimiz asriy orzusi erkin ijod qilish yo'liga o'tdi. Har qanday erkinlikning og'ir va mashaqqatli tomonlari, yozgan asarlaridagi milliy tafakkurning nechog'li balandligi bilan o'lchanadi. Shu bois, davrning kayfiyati unda yashovchi inson qalbidagi og'riqlar qanday ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi kun yozuvchisi xarakter ruhiyatini shakllantirishda nimalarga e'tibor berib kelmoqda? Aynan shu

---

<sup>1</sup>Мирзиёев Ш. 2017 йилнинг 15 июнь куни Тошкент шаҳрида бўлиб ўтган: “Ижтимоий барқарорликни таъминлаш, муқаддас динимизнинг софлигини асраш – давр талаби” мавзусидаги анжуманда сўзланган нутқ. // Халқ сўзи., 2017 йил 16 июнь, № 119 (6813).

jihatlarni tekshirish biz tanlagan **hikoyalari** mavzuning nechogʻli dolzarb ekanligini isbotlab turibdi.

**Muammoning oʻrganilganlik darajasi.** Badiiy asar ichi boʻsh idish kabidir. Unga yozuvchi olam va odam, xususan, borliq haqidagi oydin orzulariniyu, goʻzal istaklarini, bashariyat uchun dolzarb masalalarni joylashi bilan toʻldiradi. Bu idishning rango-rangligi ham undagi – xarakter, qaxramon, obraz tushunchasining nechogʻli yorqin boʻyoqlarda jilvalantirilgani bilan ham oʻlchanadi. Tanlangan mavzu yuzasidan u yoki bu darajada ixcham tadqiqotlar, talqin va tahlillar olib borilgan boʻlsa-da, badiiy nasrning mikro va makro elementi – obraz tiynatiga xos talqin zohir qilingan emas. Bu borada masala yuzasidan oʻrganilgan nomlarni keltirish mumkin. U.Hamdam «Yangilanish ehtiyoji», D.Quronov «Adabiyot nadir? Yoxud Choʻlponning mangu savoli», Q.Yoʻldoshev «Yoniq soʻz», H.Umurov «Tahlil chizgilar», Y.Solijonov «Haqiqatning sinchkov koʻzlari» kabi katta-kichik tadqiqotlarda masalaga ayrim murojaatlar qilinganini uchratish mumkin. Shu asosda biz mazkur oʻrganilgan ishlarga tayanilib, yangicha ilmiy tafakkur negizida tadqiq qilishga harakat qildik.

**Tadqiqotning metodologik asosi.** Prezident Sh.Mirziyoyevning maʼnaviyat va maʼrifat borasidagi asarlari ham muhim manba boʻlib xizmat qiladi «Milliy istiqlol gʻoyasi va maʼnaviyat mafkurasi» asos vazifasini oʻtaydi.

**Tadqiqotning joriylanishi.** Ajiniyoz nomidagi NDPIning hozirgi oʻzbek nasri borasida olib borilgan istiqbolli rejalar dasturi doirasida amlga oshirildi. Tadqiqot ishida oliy oʻquv yurtlari talabalari – kurs ishi, referat, mustaqil taʼlim topshiriqlarini bajarishda manba sifatida foydalanishi mumkin.

**Ishning ilmiy yangiligi.** Bitiruv-malakaviy ishning ilmiy yangiligi shundan iboratki, istiqlol yillarida yaratilgan asarlar hali toʻla toʻkis oʻrganilib boʻlingani uoʻq. chunki, davrning ilgʻor suratlarda rivojlanib borishi badiiy asarlarni oʻrganishning yangicha qirralari, metodlari yuzaga chiqmoqda:

- Samad obrazida jipslashgan voqelik falsafiy mushohadasi yozuvchining oʻzining mushohadalari yangligʻ koʻzga tashlanishini ilmiy asoslash;

hikoyada qahramon ruhiyati namoyishi orqali – jamiyat hayotiga zimdan nazar tashlash holati ko'zga tashlanadi;

- timsollarining bir-biriga o'xshash jihati har ikkisinining ruhiyatida – ma'aniyatga bo'lgan ishtiyoqning zohirligini tekshirish;

- hikoya o'ziga xos tomonlarini ilmiy asoslashdan iborat.

**Tadqiqotning obe'kti va predmeti.** Bitiruv-malakaviy ishga L.Bo'rixonning hikoyalari" va adibning boshqa-da asarlari o'rni-o'rnida tahlilga tortildi va asos vazifasini o'taydi.

**Tadqiqotning tuzilishi.** Bitiruv-malakaviy ish **kirish III ta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan** iborat.

## I BOB. LUQMON BO'RIXONNING O'ZBEK ADABIYOTIDA TUTGAN O'RNI

Hozirgi o'zbek nasri, xususan, milliy hikoyachilikda kuzatilayotgan sifat o'zgarishlarini ilmiy–nazariy tadqiq etish bevosita ijodkor uslubiy izlanishlariga borib taqaladi. «Kompozitsiyaning badiiy asardagi funksiyalari haqida so'z ketganda, avvalo, uning badiiy asar murakkab tarkibini – ham badiiy ifoda madaniyatini, ham hayot materialini uyushtirib berishini e'tirof etish joiz. SHu nuqtai nazardan, poetologik intizom asar badiiy to'qimalarini jipslashtirib turadigan va uni estetik markazga yo'naltiradigan adabiy kategoriya hisoblanadi»<sup>1</sup>, – deb yozadi rus adabiyotshunosi L.I.Timofeev. Badiiy uslub muammosi esa kompozitsion tarqoqlikni shakllantiradigan poetologik mezon sanaladi.

Ma'lumki, turfa adabiy tizimlar shakllanish tamoyillari badiiy vazifadoshlik imkoniyatidan o'sib chiqadi. Belgidan timsolga, obrazdan ma'noga o'tib turadigan ijodiy mohiyat o'ziga xosligi komponentlarni butunlik sari yo'naltiradi. O'z navbatida, uslubiy intizom janr mushtarakligini taqozalaydi. Ma'naviy faoliyat turlarida kuzatiladigan ijtimoiy–ruhiy mezon san'atda tamomila o'zgacha xarakterga kiradi. Aniqrog'i, adabiy tizim komponentlari va badiiy asar komponentlari muvozanatini uslubiy manera jipslashtiradi. Aslida tasavvur, idrok va qiymat uyg'unligi badiiy yaxlitlik ta'minotini tavsiflaydigan, voqelikning aniq tasviri hamda qayta shakllantirilgan ifoda mustaqilligini g'oyaviy ibtidoda markazlashtiradigan etakchi ijodiy taomillar hisoblanadi.

Yangi asr ostonasida jamiyatda axloqiy mezonlarni yangilash ehtiyoji tobora kuchaya bordi. Nasr, xususan, milliy hikoyachilik tadrijida inson ma'naviyati tadqiqi birinchi o'ringa ko'tarildi. Chunki bir tomondan, katta ijtimoiy muammolar kun tartibiga ko'tarilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, mavjud siyosiy andozalar emirilayotganligi ruhiyat talqiniga zaruratni oshiradi. Tabiiy ravishda, mazkur xususiyat voqelikni tadqiq etishning o'zgacha tamoyillarini yuzaga chiqardi.

---

<sup>1</sup> Тимофеев Л.И. Основы теории литературы. –М.: Просвещение, 1966. – С. 154.

L.Bo‘rixonning «Jaziramadagi odamlar» asari yuqoridagi fikr mulohazalarni oydinlik kiritishga zamin hozirlaydi. YOzuvchining ushbu ilk hikoyai inson va uning qismati, jamiyatdagi o‘rni va orzu umidlari ko‘proq kinoyaviy–parodik yo‘sinda idrok etilgan. «Ijodkor universal fikrlay boshlaganda, odam va olamga kinoyaviy yondashuv ustuvorlik qiladi. Odam yoki millat dunyoga chiqib, o‘zgalarga yaqinlashayotganda, kinoyaviy tasvir adabiy ifodaning asosiy vositasiga aylanaganida»(Q. Yo‘ldoshev) uslubiy manerani yuzaga keltiradi. Darvoqe, bir qator rang–barang hikoyalari bilan kitobxonlar, adabiy jamoatchilik nazariga tushgan Luqmon Bo‘rixon badiiy tafakkuriga xos muhim xislat shuki, atrofimizdagi bo‘lgan va bo‘layotgan hodisalarga boshqacha tarzda yondashadi. O‘ziga xoslik esa ana shu jihati bilan ayrichadir. Adibning ushbu ilk hikoyai mavzu–mundarijasi keng, ijtimoiy muammolarni emas, har bir insonning alohida olami, ichki kechinmalarini, ruhiyatini chizishga kirishadi. O‘z navbatida, mazkur holat, hayotni badiiy tadqiq etish mundarijasi – badiiy uslubga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Istiloh tabiati adabiy tur va janr takomilida xoslanadi. Ijodiy komponentlararo aloqa shakl–mazmun–uslub yaxlitligini tashkil etishini hisobga olsak, muammo mohiyati yanada teranlashadi.

Badiiy asar uslubi, shakliy–uslubiy izlanishlarning nazariy asoslari bilan bog‘liq ayrim masalalar o‘zbek adabiyotshunosligida A.Fitrat, M.Qo‘shjonov, I.Sulton, H.Umurov, A.Rasulov, B.Sarimsoqov, O‘.Nosirov, H.Boltaboev, B.Karimov, D.Quronov, N.Rahimjonov singari olimlarimizning adabiyotimiz nazariyasidan bahs yurituvchi qo‘llanma va risolalarida muayyan darajada yoritilgan. Ayonki, badiiy uslub tushunchasi g‘oyaning tayanch markazida shaxsiylashgan mohiyatini ilgari suradi. To‘g‘rirog‘i, mazkur atama jonli estetik tizim sifatida ma’no maydonining shakliy mundarijada namoyon bo‘lish tarzini asoslaydi. Ayni paytda, mazmun tarkibida uyushadigan tasvir yo‘sini hamda shakliy markazda barqarorlashadigan ifoda yo‘nalishi orasidagi munosabat tasviriy–nutqiy yaxlitlikni belgilab beradi. SHunday ekan, ijod morfologiyasi, lug‘aviy–semantik maydon va sintaktik aloqa kesishgan nuqtada uslubiy alohidalik



sifat ko'rsatkichi shakllanadi. Unda tuyg'u silsilasi, nazariy baholash mezonlari, mushohada yurishlari va tushuncha salohiyati uyg'unlashadi. Binobarin, tasavvur miqyoslari muvofiqligi taassurot hajmi uzviyligini tashkil etadi. SHu o'rinda alohida ta'kidlash joizki, badiiy uslub intizomi tildagi aniq ifodadan ibtido oladigan ijodiy-usuliy yondoshuv rang-barangligidan oziqlanadi. «Mohiyat va ta'sirchanlikning o'zaro aloqa hamda bir-biriga o'tib turishi uslub tarkibini belgilaydi. Uslubda mohiyat va ta'sirchanlik munosabati tamoyili shuni anglatadiki, unda shakl tizimi ma'no maydonini boshqaradi, ma'no maydoni esa uslubning shakliy darajasini ta'min etadi»<sup>1</sup>, – deb yozadi rus olimi M.Polyakov. SHu jahati bilan tahlilga tortilgan «Jaziramadagi odamlar» asari muammoning o'rganilishida muhim ob'ekt vazifasini o'tadi. Bunda yozuvchining individual uslubi o'ziga xosligini aniqlash barobarida, zamonaviy mavzudagi hikoyalar bilan uslublararo bog'liqligi jiddiy tadqiq etilishini nazarda tutganmiz.

Darhaqiqat, janriy–kompozitsion yaxlitlik shakl–mazmun–uslub munosabatida butunlikka erishadi. CHunki adabiy mohiyat hayotiy shakldan badiiy mazmunga, badiiy mazmundan uslubiy alohidalikka qadar murakkablashib boradi. Ayni paytda, ushbu murakkabliklar asar badiiyatini faqat oshiribgina qolmay, «dunyoni yangicha ko'rish»ga intilayotgan yozuvchining badiiy mahoratini ham izchillikda yoritishga bo'lgan masofani kengaytirishga xizmat qiladi. L.Bo'rixon hikoya janridagi ilk tajribasidanoq odam va olamga bo'lgan dunyoqarashi – o'z hayotiy pozitsiyasi borligini to'la namoyon qila oldi. Ilk tajriba hamma vaqtlari ham shunday e'tiborga molik hodisa bo'lib tarixda qolganligi ma'lum. Qodiriy, Qahhor, P.Qodirov, O.YOqubov kabi so'z san'atkorlarining ilk tajribalari bilanoq, o'zining to'la iste'dodini namoyon qila olgan. L.Bo'rixon ushbu hikoyaida «41–sovxoz»dagi, aniqrog'i ovloq cho'l qo'ynida istiqomat qiluvchi odamlar hayoti – yashash sharoitini, orzu–aromonlarini butun–murakkabligicha tasviga oladi. Hikoyadagi barcha voqealar – hikoyachi personaj tomonidan bayon etiladi. Atamani nazariy jihatdan sharhlaydigan bo'lsak, 60–yillarda bir necha yozuvchilar

---

<sup>1</sup> Поляков М. Вопросы поэтики и художественной семантики. – М.: Госполитиздат, 1961. – С. 109.

«voqeani» asarda ishtirof etuvchi bosh qahramon tilidan hikoya qilib bergan holatlarni uchratamiz. Masalan, Gʻ.Gʻulomning «SHum bola» qissasi – SHum bola tilidan, Ch.Aytmatovning «Jamila» va bir qator qissalarida – hikoyachi tilidan bayon etiladi. L.Boʻrixon esa ushbu hikoyada hodisotni – Samad tilidan hikoya qilib berish yoʻlidan boradi. YAna shuni taʼkidlash joizki, bunday chogʻda muallif tili – boshq bir personaj – hikoya qilib beruvchining tiliga aylanadi hamda birmuncha qoʻshimcha xususiyatlarni ham oʻzida birlashtiradi. Bu hol kitobxon tasavvurida, asarning qiziqarliligini, shavq–zavq uygʻotishini, zamondosh inson ruhiyati, xarakterini yuksak muhabbat bilan ifoda eta olganligini kuzutamiz. Demak, yozuvchi ijodiy niyati asarda «toʻlaqonli maromiga etib tasvirlangan» degan xulosaga kelishimizga asos beradi.

Yozuvchi har bir asarida hayot voqeyligini talqin etar ekan, rela haqiqatga asoslangan holda realizmning keng imkoniyatlaridan unumli foydalanadi. Chunki hayotiy voqealar silsilasida obrazlar tizimini vujudga keltiradi. Ijodkor uchun hayotiy ziddiyatlar badiiy toʻqima asosida jonlantiriladi. Bu esa ijodkordan olam va odam haqidagi qarashlarni umumlashtirish jarayonida katta mahorat talab qiladi. Ana shunday isteʼdod egalaridan biri Luqmon Boʻrixondir.

Adabiy janr sifatida hikoya genezisi oʻrganilganda, bugun biz hikoya deb atayotgan janrning badiiy xususiyatlari antik adabiyotning ilk asarlarida, xalq ogʻzaki ijodi namunalarida, yozma asarlarda, qahramonlik eposlarida, liro-epik asarlarda ham namoyon boʻlgan. Inson ongi, tafakurining taraqqiyoti natijasida jamiyat badiiy – estetik tafakkuri ham shakllana borgan. Insonda voqyelikka nisbatan falsafiy mushohada ham ortgan, shunga koʻra keng qamrovli talqinga nisbatan talab yuzaga kelgan, buning natijasi oʻlaroq hikoyaning ilk namunalari yaratildi. Adabiyotning hikoyalashuvi aslo boshqa janrlarga, hikoyaga xos xususiyatlarni zoʻrlab targʻib etish degan gap emas. Adabiyotshunos olim Umarali Normatov bu haqida shunday yozadi: “Hikoyada koʻnglimiz his etib turgan, ammo biz hali toʻla anglab ulgurmagan yoki tagiga yeta olmagan badiiy sir – sinoatlar, fazilatlar anchagina. Garchi hiyla murakkab, biz koʻnikmagan shaklda bitilganiga

qaramay ko'pchilik kitobxonlar bu asarga qiziqish bilan qarayotganligi sababi shunda".<sup>2</sup> Haqiqatan ham adibning "Jaziramadagi odamlar" hikoyai hayotni tasvirlash jarayonida inson xarakteridagi murakkab qirralarni obrazli tasvirlashga intiladi.

Hikoyada aynan shunaqa qonuniyatning o'zi yo'q. Hikoya o'zgarib turadigan, hamisha izlanuvchan, o'zini o'zi tahlil qilib turadigan janrdir. Shuning uchun ham adabiyotning hikoyaga xos jihatlarni o'zlashtirishi aslo bir janrning boshqa janrlarga nisbatan xosligini targ'ib etuvchi tazyiq emas, aksincha, ularning taraqqiyotiga salbiy ta'sir etuvchi har qanday shartli, jonsiz, hayotiy bo'lmagan xususiyatlardan ozod etish, hikoya bilan bir qatorda, o'z davrini yashab bo'lgan qandaydir uslubdan ozod qilish demakdir.

Darhaqiqat, hikoyadagi syujet dinamikasi o'ziga xosligi tadrijiy takomili asosida turfa xil taqdiralar, turfa obrazlarning xatti-harakati, dunyoqarashi, qalb kechinmalarini ifodalash yozuvchidan kata mahorat va matonat talab etadi. Jumladan, Luqmon Bo'rixon milliy nasrimizga o'tgan asrning 90 yillarida kichik janrda ya'ni hikoya yozish bilan kirib kelgan bo'lsa, katta janrda ham barakli ijodiy mahoratini nomayon qila olgan adiblarimizdan biri sanaladi. Darvoqye, joriy pallada istiqolol deb atalmish estetik hodisa silsilasida hikoya janri ham salmoqli mavqeyeni kasb etadi. Bu boradagi jiddiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, polifonik tafakkur, polifonik unsurlar, hikoyaadagi ko'pqatlamlilik, ko'povozlilik, tamomila boshqa-boshqa uslubiy maneralar o'z ifodasini topyotganligidan dalolat beradi. Hikoya tafakkuriga jalb etilgan manba umuminsoniy muammolar darajasida tasvirlangan insonga xos xarakterning polifonik talqinidir. Yovuzlikning har bir ko'rinishi ham zulmdir. Inson o'z ruhiga singib ketgan yovuzlik mohiyatini anglashi o'z fojiasining sababini anglashi demakdir.

Inson ruhiga yovuzlikning kirib kelishi va uning fojeiy oqibatlari «Shox» hikoyaiga ham olib kirilgan. Hikoyaning badiiy-estetik ahamiyati shundaki, yozuvchi hikoyaga xos tafakkurni hikoyaga jalb etishda polifonik talqin yo'llariga

---

<sup>2</sup> Umarali Normatov. Umidbaxsh tamoyillar. — Toshkent, "Ma'naviyat", 2000. 61-bet.

murojaat etadi. Tadqiqotchi Z.Pardayeva haqli ravishda e'tirof etganidek, hali «o'zbek adabiyotida polifonik hikoya shakli mavjud emas. Binobarin, faqat mazkur atamaning ta'siri hamda ayrim unsurlari munosabati seziladi».<sup>3</sup> Yozuvchining asarlari haqida so'z yuritilar ekan, polifonik tasvir usulidan unumli foydalanayotgani alohida qayd qilinadi.

Mustaqil va bir-biri bilan qo'shilmaydigan ovozlari va fikrlarning ko'pligi, to'laqonli ovozlarning haqiqiy polifoniyasi ko'p ovozli hikoyalarning eng asosiy xususiyati hisoblanadi. Bunday asarlarda muallif tomonidan yaratilgan turlicha xarakter va taqdirga ega bo'lgan odamlar yozuvchi tafakkurining yagona obyektiv olamida tartibli ravishda tarqalib ketadi. Aynan turli ohangdagi teng huquqli fikrlar har xil ong va toifadagi qahramonlar dunyosi bilan o'zining qo'shilmaslik fazilatini saqlagan holda uyg'unlashib, ba'zi bir voqealarda birlashadi ham. Shu jihatdan polifonik hikoyaga xos nutq strukturasi monologik nutqdan qahramonlarning mustaqil va o'ziga xos fikrlashi, ichki erkinlikka ega bo'lishi, ba'zi paytlarda o'zini dunyoga keltirgan muallif baholariga ham qo'shilavermasligi, sarkashligi bilan ajralib turadi.<sup>4</sup>

Asar kompozitsiyasi – badiiy ijodning jiddiy yondashishni talab qiladigan muhim nazariy masalalardan biridir. Inson o'z ijodiy faoliyatining barcha sohasida kompozitsiya to'g'risidagi muayyan prinsiplarga amal qilishi ham bejiz emas. Kishilar bunga ko'p vaqt o'rnashib qolgan an'analar asosida, ongli ravishda, ba'zan esa go'zallik tuyg'usi ta'sirida beixtiyor amal qiladilar. Aristotelning fikricha «Har bir jism uning mohiyati bilan belgilanadi».<sup>5</sup>

Darhaqiqat, bir parcha dalaga ishlov bergan oddiy dehqon hamma yerga qandaydir forma berishga, uning bichimini keltirishga intiladi, uni burchaklarga bo'lib, qismlarga ajratadi va hokazo. Dehqon, avvalo, bu ishlarni o'z manfaati nuqtai nazaridan, ya'ni o'z yeridan iloji boricha ko'p hosil olish maqsadida qiladi. Shu bilan birga, bu ishni u go'zallik haqidagi muayyan an'ana va tuyg'ularga

<sup>3</sup> Пардаева З. Бадий-эстетик тафаккур ривожини ва ўзбек романчилигини . –Т.: Янги аср авлоди, 2002. –Б.41.

<sup>4</sup> Солижонов Й. Ўзбек полифоник романлари // Ўзбек тили ва адабиёти, 2002. № 5. –Б. 8.

<sup>5</sup> Аристотель. Поэтика. –Т.: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти. 1980, –Б.23.

bo'ysungan holda bajaradi. Faqat, dehqon emas, boshqa kasb egalari ham shunday qiladi. Badiiy ijod inson mehnatining eng oliy shakli. Yer ishlash, buyum yasashda ulardan to'laroq foydalanish birinchi o'rinda tursa, badiiy ijodda asarlarning hayot uchun foydali tomonini uning aslidan ajratib olish mumkin emas. Burchaklari birlariga uncha mos tushmagan stolda vaqtincha zarur ishni bajara berish mumkin. Biroq go'zallik prinsiplariga rioya qilib yozilmagan asardan biror naf olish mumkin emas. Go'zallik ko'proq asar strukturasida ko'zga tashlanib, asarning tuzilishi esa kompozisiyaga taalluqlidir. Badiiy ijodda kompozisiya prinsiplari ayniqsa muhimdir.

Qahramon ongida tashqi muhit ta'sirida tug'ilgan, ruhiyatiga xos bo'lgan andishani yengish g'oyasi bora-bora uning ruhida kuchga aylanadi. Chunki u «andishani yengish» mohiyatini o'z-o'zini anglash, o'z haq-huquqini talab qilish deb emas, hammadan zo'r bo'lish va bu zo'rligi bilan odamlar ko'ngliga qo'rquv solishda deb angelaydi, shu sababdan ham uning ruhiyatiga kirib kelgan andishani yengish zo'r bo'lish g'oyasiga aylanadi.

Odamlar dunyo sirlarini bilishga juda qiziqadi. O'zining ko'ngliga zarur ehtiyojlarni ba'zilar sport o'yinlaridan, ba'zilar esa musiqa tinglashdan, yana bir toifa kishilar televizor ko'rishdan, yana boshqa birovlar esa badiiy adabiyot mutolaasi ila qondirib boradi. Bu kabi har xillilik esa insonni o'z borlig'i va mohiyatini teran anglab yetishga olib keladi. Xo'sh, bu borada adabiyotning, xususan badiiyat solnomasining roli va o'rni nimalardan iborat? Hayot hodisalarini teran tadqiq qilyotgan san'atkor qay jihatlari bilan boshqalardan ajralib turadi? Yakka qalb harorati minglab, millionlab insonlarni qanday larzaga sola biladi, bunga qanday erishiladi? Yoki bo'lmasa butun insoniyatni boshqa yo'lga solib yuborgan, taraqqiyotiga munosib turtki bo'lgan adiblar asarlari qay tariqa dunyoga kelgan? Uning yaratuvchilari-chi? Bu kabi savollarga javob topishni adabiyotshunoslik ilmi jiddiy tadqiq qilsagina, badiiyat sirlari ochiladi, yozuvchi xarakteri ham, uslubi, botinida bo'y ko'rsatatyogan bilim va tajribalari ham oydek ravshanlashadi. Bas, shunday ekan, nega keyingi paytlarda yaratilayotgan

asarlardagi obrazlar tasavvurga sig'maydigan xuddi musiqa sadosidek bir eshitiladiyu, keyin esimizdan chiqib ketadi. Asrlar davomida bashariyat oldida shamchiroq bo'lib, kishini yaxshi tomonlarga boshlab boradigan, qalb dardlariga sherik, hamroh bo'ladigan obrazlarni yaratgan san'atkorlar haqiqatan ham ibratli shaxlarmi? Agar shunday bo'lsa, istiqlol davrida an'anani tadrijiy tartibdi davom etayotgan yozuvchilar kimlar? Ular ham yozganlaridan nimadir qoniqish his eta olmoqdalarimi? Yoki ijodni "faqat yozishdan iborat" deb tushunadilarmi? Jiddiy e'tibor bilan adabiyotimiz mohiyatiga zimdan nazar tashlansa, istiqlol davri hikoyalarida inson dunyoqarashi qay tariqa ifoda etilmoqda? Jahon ma'naviyati va estetikasi ta'sirida kamol topib boryotirmi yoki o'zimizning azim an'analarni davom ettirmoqdalarimi? Bu kabi savollarga javob topish uchun xalq og'zaki an'analarni davom ettirib, o'ziga xos maktab yaratgan hikoyanavislar izlanishlarini teranroq tadqiq etsakkina, masala-muammo mohiyati yanada oydinlashadi. XX asr tongotarida o'zbek hikoyachiligida tamomila yangi bir bosqichni boshlab bergan A.Qodiriy va Cho'lpon ijodida epik an'ana bir qadar boshqacha tusda zohir bo'ldi. Bunda tuyg'u va ongda evrilishlar yangi bir uslubning yaralishiga zamin hozirladi. "Biz dostonlarni o'qib yurguvchi xalq edik" deya iqror bo'ladi A.Qodiriy. Shubhasiz, shuni alohida qayd etish joizki, A.Qodiriy badiiy tafakkuri jahon estetikasi va ma'naviyati ta'siri o'ziga xos shakl yaratishida munosib hissa bo'lib qo'shildi. Ayniqsa, fransuz, rus va o'zimizning boshqa xildagi badiiyat solnomalari sintezi natijasida "O'tgan kunlar" hikoyai yaratildi desak, haq gapni aytgan bo'lamiz. Biz ko'nikkan amaliy tajribadan shuni his etish mumkinki, hozirgi milliy nasrimiz, xususan hikoyalarimiz tabiati va undagi hayot nafasi "O'tgan kunlar" darajasida bo'lmasa ham, shu kabi asarlar qatorida tura olishi sir emas. Bu hodisani teranroq o'rganish yangi adabiy tanqid va adabiyotshunoslik oldidagi hali o'z yechimini kutib turgan dolzarb muammolardan biri sanaladi. Binobarin, Luqmon Bo'rixonning individual uslubi o'ziga xos mohiyat kasb etadi. Ayniqsa, adib izlanishlari jahon va o'zbek adabiy an'analari ta'sirida shakllanayotgan, shuningdek qirg'iz faylasuf adibi Chingiz Aytmatov

ijodiga xos talqinlarga hamohanglik yaqqol seziladi. Bunga bir tomondan baho berib bo'lmaganidek, “sof” va “sog'lom tanqidiy tafakkur” shuni izohlaydiki, hozirgi globallashuv jarayonida nafaqat fan-texnika, balki inson his – tuyg'ularining mahsuloti badiiyat solnomalarida ham shuni anglashimiz kuzatishimiz mumkinki, shiddat bilan evrilayotgan dunyo qiyofasi yangi-yangi shakllarning va ayni damda shu shakliy izlanishlar mazmunni yangilashini isbotlashmoqda. O'zbek hikoyachiligida falsafiy intellektual ohang kuchayishi, inson xarakterini butun-murakkabligicha, g'arbona stilda ruschachiga “golaya proza” tarzida tasvirlay boshlashi adib dunyoqarashiga «ommaviy madaniyat»ning nechog'li ta'siri bor ekanligi shubhasiz bu haqiqatdir. So'nggi o'n yilliklar mahsuli hikoyachiligimizda yuqoridagi fikr va mulohazalarning amaliy ifodasini faqat Liqmon Bo'rixon ijodida uchratmaymiz albatta. Z.Qurolboy qizi, L.Bo'rixon, U.Hamdam kabi o'nlab nosirlar yaratiglarida ko'ramiz. Bu degani shuki, taqdiri azalning, ya'ni inson qismati yaralishidan boshlab, shu choqqacha bo'lgan oraliqda, zamonlar evirilsa hamki, haliyam o'sha-o'sha o'zgarmas xilqatdir. O'lim, va hayot, muhabbat va nafrat, shodlik va qayg'u, do'stlik va xiyonat kabilar adabiyotning abadiy qismati kategoriyalari sanaladi. Faqatgina buni ifoda etish yozuvchi shaxsi va uning dunyoni kuzatish, anglash va anglashtish, tasvirlash manerasiga borib taqaladi. Bu kabilarni yozuvchilarimiz yetarlicha ifoda eta olyaptilarmi? degan savol tug'ilishi tabiiy hol. Ayni fikrlar bahsi bunga boshqacha ism berishga shaydirlar: “Yo'q” degan hayqiriq keladi kimlarningdir ichidan.

## **II BOB. YOZUVCHI HIKOYALARINING G'OYAVIY-BADIIY XUSUSIYATLARI**

Ma'lumki, vaqtning o'tayotgani farzandlarning, avlodlarning voyaga yetayotganiga qarab belgilanadi. Shu ma'noda urush tugagandan keyin ko'p yillar o'tdi. Lekin bu yillar og'ir sinov kunlarini odamlar xotirasidan surib chiqargani, xiralashtirib qo'ygani yo'q. Balki, aksincha, yillar o'tgan sari ikkinchi jaxon urushining tarixi shunchalik muqaddas bo'lib, u haqdagi tasavvurlarimiz esa yanada to'lishib, mukammallashib boryapti. Vatandoshlarimizning qoni, imoni va e'tiqodi bilan bitilgan bu tarix faqat kattalar uchungina emas, ayni chog'da yoshlar – keyingi avlodlar uchun ham g'oyat e'zozli, iftixorli va ibratli tarix bo'lib qolyapti. Hozir bu mavzuga yozuvchilarimizning turli avlodi vakillari murojaat qilishayotganini, qator-qator asarlar yaratishayotganini biz yuqorida ham ta'kidlagan edik. Loaqal, ushbu gaplarning to'g'riligiga o'zbek adabiyotining keyingi 15-20 yillik taraqqiyot jarayoniga nazar tashlash orqali ham amin bo'lish mumkin. Ikkinchi jahon urushi darnini turli darajada biladigan, uni o'zining hayotiy tajribasidan kelib chiqib tasavvur qiladigan har xil yoshdagi yozuvchilarimiz bu mavzuda ko'plab asarlar bitishmoqda. Ularning hammasi ham badiiyligi, o'sha davr hayotini haqqoniy yoritish olish jixatidan bir xil bo'lmasligi turgan gap. Bu, albatta har bir yozuvchining voqyealar va xarakterlarni tasvirlashdagi o'ziga xos uslubi bilan belgilanadi.

Luqmon Bo'rixon hayotni kuzatish va uni uzuq-yuluq lavhalarga singdirish uslubi bir qadar murakkablik kasb etadi. Chunki adib yaratgan «Jaziramadagi odamlar» hikoyaida bir qancha obrazlar ruhiyatidagi o'zgarishlar sababi, jamiyatdagi mavjud tartibotlar, xususan, bozor iqtisodi sharoitida shakllanayotgan «zamonaviy urf»lar asosida alohida diqqatni qaratadi. Ayniqsa, qahramon ruhiy borlig'ini sinchkovlik bilan kuzatib, ichki iztiroblarigacha anglagan yozuvchi tadbirkorlik orqali o'z hayotini yo'lga qo'yayotgan inson hayotini qalamga oladi. Istiqlol davri o'zbek nasri halqasida o'z hikoya, qissa va hikoyalari bilan



e'tibor qozongan Luqmon Bo'rixon badiiy izlanishlari salmoqli o'rin tutadi.

Qahramon shaxsini badiiy detallashtirishga moyillik, inson va muhit ziddiyatlarini kinoyaviy-parodik baholashga intilish hamda hayotiy muammolar falsafiy teranligini ta'minlash ijodkor adabiy talqini o'ziga xosligini ta'minlaydi

Luqmon Bo'rixonning "Kutilgan kun" hikoyasining ichki tuzilishi quyidagicha: hikoyada prolog hamda epilog qismlari yo'q bo'lib, yozuvchi xronologik syujetdan foydalangan bo'lib, voqealar ketma-ket orqaga qayta boshlaydi aynan ushbu jumalardan keyin:

"...Boyxon bu kunni ixlos bilan kutgandi. Go'yo bu kun u bir yumalab boshqa xil odamga aylanib qoladiganday, jikkak, tajang Boyxonning o'rnida etli-so'lli, kelishgan Boyxon taltayib turadiganday edi... Eh, bu kun, bu kun...

U bir quchoq sovg'a keltirib, xotinini tug'ilgan kuni bilan qutlamoqchi, uning lablarida shirin bir tabassum ko'rmoqchi, so'ngra esa o'zi orzu qilgan o'sha o'rik gullari iforiga burkanib, hamma-hammasini - o'z hayotini, turmushini qaytadan boshlamoqchi edi. Shu boisdan tong bo'zarmasdanoq shoshilib, ammo tetik va allanechuk xush kayfiyatda ko'chaga otilgan, xotini - ikki oylik kelinchak orqasidan ajablanib qarab qolgandi".

Asarning ekspozitsiyasi esa "Boyxonning kasbi betayin edi. U bir vaqtlar motor zavodida xizmat qilar, ishga shirakayf kelsa-da, berilgan topshiriqlarni tuzukkina do'ndirar edi. Biroq orada aroqxo'rlikka qarshi kurash boshlanib ketdiyu, namunam sifatida uning kovushini to'g'rilab qo'yishdi. Boyxon shu-shu hech joydan ish topolmadi. Oxiri mardikorlikka kuni qoldi"- jumalari bo'lib, aynan Boyxon personajini o'quvchiga shu jumalar orqali tugunga yo'l ochib beradi.

Asarning tugunini esa quyidagi jumalar tashkil qiladi:" Boyxon yaqinda uylandi. To'g'rirog'i, uni uylantirishdi. Aka-opalari qo'lni-qo'lga berib, onalari bilan obdon maslahatlashib kelin topdilar. Kelin - Yangi daha tomonda yashovchi ammasining qizi bo'ldi". Sababi Boyxonda qarama - qarshi fiklar va qarashlarning kelib chiqishiga , o'zgacha inson bo'lishga intilishi uylanganidan keyin paydo bo'ladi.

Voqealar rivoji esa tugundan keyin boshlanib ketadi. Boyxonning ishlarining yurishmayotganligi, har kuni eshigi oldida g'uddaygancha mast holatda paydo bo'lishi va buning oqibatida o'z rafiqasidan yomon munosabat kutishi, lekin barcha o'ylarining aksincha bo'lib chiqishini kuzatadi. Boyxon "baribir men bilan yashay olmaydi, onasinikiga ketib qoladi" degan hadik bilan yashashda davom etadi. Lekin sabr- u qanoatda tengsiz deb o'ylagan qahramnim ya'ni uning rafiqasi buning aksinchasini qiladi, ya'ni avvalgidan ham ko'proq mehribonlik va g'amxo'rlik ko'rsatadi.

Asarda deyarli Boyxon bilan boshqa personajlar orasida konflikt kelib chiqmaydi. Men uchun aynan shunisi qiziq edi? Nega endi aynan bu personajga nisbatan kuchli konflikt kelib chiqmaydi. Qizning onasi ya'ni o'zining ammasi bilan biroz kelishmovchilik kuzatiladi, lekin kuchli darajada emas. Boshqa personajlarga qaraganda konflikt ko'proq Boyxon obrazining ichki kechinmalarida kuzatiladi. Sababi o'zining asl holatini o'zgartirishga kirishadi, lekin buning uddasidan chiqolmaydi.

Asarning kulminatsion cho'qqisi deb men ushbu jummalarni oldim:" Biroq uch kuncha burungi bir hodisa uni butkul boshqa o'zanga burib yubordi.

O'sha kuni omadi yurishmagan Boyxon tushdan so'ng shalvirabgina uyiga qaytgandi. U hovli eshigidan oyog'ini oshirdi-yu, ajoyib manzaraning guvohi bo'ldi.

Sochini chiroyli turmaklab, duracha bilan tang'ib olgan xotini o'sha o'rik daraxtining shoxlariga kir yoymoqda edi. Durrachasi tegidan chiqib turgan, shamolda hilpirayotgan uzun-uzun soch tolalariga daraxtning nurdek ingichka bir shoxi go'yo o'pmoqchiday ohista-ohista silanar, kelinchak esa shirin-shakar xayollar og'ushida zavqlanib betinim iljayardi.

Boyxon bu xushmanzarani to'rt-besh daqiqa - to unga xotinining ko'zi tushgunicha tomosha qilib turarkan, nogoh, dimog'iga gup etib o'rik gullarining ifori urilgandek tuyuldi. Boshi aylanib ketdi.

xotini u tomon ilkis nazar tashladi-yu, ikkovlari baravar iljaydilar. Bu ularning bir-biroviga birinchi samimiy tabassumi edi”. Aynan ushbu jumlar bosh qahramonning qalbini larzaga solgan holat edi. Ushbu voqeadan keyin qahramon hayotida tub burilish yasamoqchi edi.

Asarning yechimi esa Boyxonning turmush o’rtog’ining tug’ilgan kuniga bo’lgan tayyorgarlik jarayoni edi. Shuncha kun unga kutilmagan sovg’a tayyorlashga harakat qiladi, bu bilan esa o’zining o’zgarganini rafiqasiga va eng muhimi o’ziga isbotlamoqchi bo’ladi, lekin “Eski hammom eski tos” deganlaridek buning uddasidan chiqolmaydi. Yana o’sha achinarli hayotida qolaveradi. Buning sababchisi esa ,avvalo, o’zi va yonidagi do’stlari edi.

Aynan syujetning shu tarzda ketishi, tugun, ekspozitsiya, voqealar rivoji, yechimdan tashkil topishi, asar monolog va dialoglardan tashkil topishi, kichik bir hikoya bo’lsa ham mana shu vositalar orqali katta bir hikoyachalik ma’no va mazmunni chiqarib berishi bu asarning yutug’i hisoblanadi. Bularning barchasi birlashib esa butun bir kompozitsiyani tashkil qiladi.

Hikoya mazmuni tirikchilik, pul topish, ro’zg’or tashvishi kabi muammolarni ertadan o’z yelkasiga olgan, shu tashvishlar oqibatida bolalikigi yo’qotib, erta bilan katta kishilardek fikr yuritadiga bo’lib qolgan Umidjon hayotini yoritib berishdir. Yoshgina qalbida ulkan mehr-muhabbat, odamiylik kabi ulug’ tuyg’ularni jamlagan bu bolakay barcha uchun birdek aziz va qadrli. U ham barchani birdek hurmat qiladi, ezozlaydi.

**G’oya:** kim bo’lmang, qayda bo’lmang hamma vaqt barchaga mehrli bo’ling. Halol mehnat bilan rizq toping.

**Shakl va mazmun:** hikoyaning shakli va mazmuni bir biriga uyg’un.

**Voqelar rivoji:** - *E-xe-e-e, men keldim! Su-ut, qaymo-oq!*

*Bu tovushdan cho’chib turaman. Har sahar shunaqa. Huddi qo’mondonning “uyg’o-o-on!” degan hayqirig’iga shay askardek, men ham sut sotuvchi bolaning chorlovidan so’ng beixtiyor o’rnimdan sapchip turaman.*

**Kulminatsion nuqta:** Shu payt katta ko‘cha tarafdan eski bir “Moskvich”shu yoqqa burldi.Chayqala-chayqala kelib, bizdan biroz narida to‘xtadi.To‘xtadiyu har ikki old eshigi babbaravar ochilib,bir tomonidan haydovchi, narigi tomonidan Umid shosha-pisha tushdi.Haydovchi tevarakka qiyo ham boqmay, tund bir qiyofada mashina bagajini ochib, bola odatda sut tashiydigan idishlar ortilgan aravachani arang ko‘tarib yerga qo‘ydi. Aftidan u juda shoshilardi. Umid unga kira haqini uzatdi. Haydovchi pulni cho‘ntagiga tiqdiyu tag‘in mashinasini shitob bilan jildirib ketdi.

Umid aravachasini sudraklab biz tomon yurindi.So‘ng tuyqus to‘xtadi. Uning yuz-ko‘zida allanechuk zavq, quvonch balqib turardi.Bola yal-yal yashnagan kuyi bizdan ko‘z uzmay, bolalarga xos bodilik bilan qo‘llarini beliga tiradi. Aftidan u g‘oyat muhim, g‘oyat quvonchli bir xabarni aytishga chog‘lanardi. Biz uning qiliqlaridan hangu mang qotib, muqarrar bir mo‘‘jiza ro‘y berishini kutib turardik. Umid nogoh qo‘llarini qanotday yoyib tantanavor xitob qildi: — Bugun men uxlab qolibman!!

So‘ng mastona bir tarzda sharaqlab kulib yubordi. Hoynahoy, u hammamizni hayronu lol qoldirib, so‘ng hafsalalarni pir qilganidan behad zavq-shavqqa to‘lib-toshardi.

Kompozitsion qurilishdagi tasvirda hikoyada Luqmon Bo‘rixon me`yor va muvofiqlikni to`g`ri yuzaga chiqargan.Asarda tasvir sayoz va bayonchilikka bayondagi ezmalik va takrorlarga yo`l qoymagan Estetik did ham o`z joyiga qo`yilgan.Asarda epigraf uchramaydi Badiiy tasvirlar o`z normasida berilgan yo`l qoyilmagan asar sarlavhasi mavzuni ochib berishga yordam bergan.

Ayonki, badiiy asar syujeti personajlarning “harakat”laridan tarkib topadi. “Harakat” istilohi ostida personajlarning makon va zamonda kechuvchi xatti-harakatlari ham, ruhiyatidagi o‘y-fikrlar, his-kechinmalar rivoji ham tushuniladi. Demak, “harakat”ning o‘zi ikki turli ekan. SHunga muvofiq, bu harakat tiplaridan qaysi biri etakchilik qilishiga qarab syujetning ikki turi ajratiladi: a) “tashqi

harakat” dinamikasiga asoslangan syujet va b) “ichki harakat” dinamikasiga asoslangan syujetlar.

“Belgilangan hududning yarmini nazoratdan o‘tkazib bo‘lar-bo‘lmasimizdan kech tushdi. Tog‘u tosh hash-pash deguncha qop-qora chodiriga burkandi. Otryadga dam olish va tamaddiga ruxsat berdim. Buning uchun, albatta, qulayroq joyga o‘rnashib oldik. Shu payt bizdan ancha naridagi qoya ortini tekshiruvdan o‘tkazishga yuborilgan ikki askar qaytib keldi.

- Dara tomonda bir chiroq miltillab turganini ko‘rdik, — deya axborot berdi ulardan biri hayajonlanib.

Men darhol ular bilan qoya ortiga bordim. Chindan ham, ancha olisda tor bir yalanglikda qandaydir shu‘la elas-elas ko‘zga tashlanardi. U yerda qandaydir tirik jon borligi shak-shubhasiz.

Biz shosha-pisha qo‘nalg‘aga qaytdik. So‘ng otryadga zarur topshiriqlar berib, o‘rnimga yosh bir zobitni boshliq etib tayinlagach, yonimga o‘sha ikki askarni olib shu‘la miltillagan yoqqa jo‘nadim.

Chor-atrof zim-ziyo. Qorong‘ulikda tog‘u tosh yanada vahimali va sirli tuyuladi. Hurpaygan archalar, g‘o‘daygan xarsanglar yurakda allanechuk sarosima uyg‘otadi. Boshimiz uzra sachrab ketgan uchqunlardek yulduzlar lovullab turibdi. Go‘yo qo‘l uzatsang yetadigandek tuyuladi. Yonimdagi askarlardan biri juda hazilkash ekan. Qulayroq bir joyda nafas rostlash uchun cho‘nqayarkanmiz, u ko‘kka go‘yo intiqlik bilan alanglab shivirladi.

- Eh, bu yulduzlar qachon pogonimizga qo‘narkan-a.

Engil kulishdik. Birozdan so‘ng yana olg‘a yurdik. Men o‘sha miltillagan shu‘lani bir zum ham ko‘zdan qochirmay odimlardim. Nazarimda, u ikki-uch marta ko‘rinmay qolganday bo‘ldi. Yo o‘chib qoldi, yo kimdir uni gavdasi bilan to‘sdi. Bu hol o‘sha joyda so‘zsiz kimdir borligini yana ham tasdiqlardi.

Shu alfozda bir soatdan mo‘lroq yo‘l bosganimizdan so‘ng o‘sha shu‘laga ancha yaqinlashdik. Men maxsus moslamali durbinimdan kuzatdim. Chog‘roq yalanglikda pastqam bir kulba mung‘ayibgina turibdi. Atrof jim-jit. Tirik jon

ko‘rinmaydi. Miltillayotgan shu‘la kulbaning kichkinagina derazasidan taralardi. Demak, ichkarida kimdir bor.

- Mening qarashimga ham ruxsat eting, — deb shivirladi o‘sha hazilkash askar.

Men rozi bo‘ldim.

- Adashmasam, bu yo cho‘pon otari yo ... yo .... ovchilar kulbasi, — deb ming‘irladi u durbindan ancha payt tikilgach.

Ha, askarning gaplarida jon bor. Bu yaqin-atrofda birorta ham qishloq, ovul uchramaydi, demak, ko‘rib turganimiz kimlardir qurgan vaqtinchalik boshpana bo‘lsa, ajabmas”<sup>1</sup>.

Tashqi harakat dinamikasiga asoslangan syujetlarda personajlarning muayyan maqsad yo‘lidagi xatti-harakatlari, kurash va to‘qnashuvlari, hayotidagi burilishlar tasvirlanadi, shu asosda ularning taqdirida, ijtimoiy mavqeida muayyan o‘zgarishlar yuz beradi. Sodda qilib aytsak, bu xil syujetli asarlarda voqea to‘laqonli tasvirlanadi, u o‘z holicha ham badiiy-estetik qimmat kasb etadi. Kelib chiqishi jihatidan syujetning bu turi qadimiyroq, xalq og‘zaki ijodidagi sehrli ertaklar, rivoyatlar, dostonlar, shuningdek, mumtoz she‘riyatimizdagi dostonlarning ham shu xil syujetga egaligi buning dalilidir. Zamonaviy o‘zbek nasrida ham syujetning bu tipi kengroq tarqalgan: “O‘tkan kunlar”, “Mehrobdan chayon”, “Kecha va kunduz”, “Qutlug‘ qon”, “Sarob” – bularning barida tashqi harakat dinamikasi etakchilik qiladi. Ayni paytda, bu asarlarda “ichki harakat” dinamikasi ham kuzatiladi, biroq u mavqe jihatidan syujet tipini belgilashga ojizlik qiladi. Syujetning ikkinchi tipiga asoslangan asarlar adabiyotimizda ancha keyin, o‘tgan asrning 80-yillaridan boshlab maydonga kela boshladi. Dastlab, syujetning mazkur navi nasrning kichik shakllarida, shuningdek, bir qator dramatik asarlarda (masalan, Sh.Boshbekovning “Taqdir eshigi”, “Eshik qoqqan kim bo‘ldi” p’esalari) sinab ko‘rildi. Xususan, A.A’zamning “Bu kunning davomi”, “Asqartog‘ tomonlarda”, M.M.Do‘stning “Iste’fo”, T.Murodning “Oydinda yurgan odamlar”

---

<sup>1</sup> [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) hikoyalar

qissalarida voqealar o'z holicha emas, personaj ruhiyatidagi jarayonga turtki berishi jihatidan ahamiyat kasb etadi. Asar davomida personajlar hayotida, taqdirida yoki ijtimoiy holatida emas, uning ruhiyatidagina burilishlar, o'zgarishlar sodir bo'ladi.

Katta hajmli asarlar syujetida bir emas, bir nechta tugunga duch kelishimiz ham mumkin. Masalan, "Jaziramadagi odamlar"da Lolaning pok muhabbati bitta tugun bo'lsa, Samadning ishqq muhtalo qalbni anglashga urinishlari ikkinchi tugunni tashkil qiladi. Bundan anglashiladiki, asarda mavjud syujet liniyalari ba'zan o'z tuguniga ega bo'lishi mumkin ekan.

Odamlarning turli tiynatga ega bo'lishi barchaga ma'lum gap. Lekin bu narsaning bejiz emasligi ko'pchilikka ayonmas. Ulug' alloma Beruniy bu haqda shunday deydi: "Odam tabiati jihatidan bir-biriga zid a'zolar qo'shilmasidan tarkib topgan murakkab tanaga ega bo'lganligi bois, uning holati o'z xarakteriga ko'ra, xilma-xil va turli-tuman bo'ladi". Shundan borliqdagi har bir inson o'z zohiriy va botiniy dunyosiga ega. Jahon adabiyotida mangukka daxldor asarlarda shunday yozilgan. Biroq, sho'ro davri adabiyotida kishilarni sinflarga, tiplarga ajratib, tiynatlarini bir xillashtirishga harakat qilindiki, albatta, bu jarayon xato edi. Bugun adabiyot o'z o'zaniga tushdi. Ya'ni, insonning o'zligini inkishof qilish orqali kishini o'zini o'ziga ro'para qilishga e'tibor qilinmoqda. Kishi ko'zguga qaraganda, albatta, biror zohiriy "kamchiligini" tuzatadi, o'ziga o'zi ro'para kelganda esa, o'zini botiniy illatlardan xalos etadi. Chunki, fransuz yozuvchisi Stendal aytmoqchi: "Adabiyot – katta yo'lga qo'yilgan ko'zgu". Unda kishining borlig'i namoyon bo'ladi.

Aytish joziki, Luqmon Bo'rixon hikoya qilishning turli xil usul va yo'inlaridan unumli foydalanadi. Binobarin, har bir hikoyasini jahon hikoyachilik maktabiga bo'ylab yozadi. Shuningdek, jahon hikoyachilik maktabining nazariy qonun-qodilaridan xam voqif qiladi u adabiy jamoatchilikni. Demak, hikoyachilikdagi o'zining maxorati, iste'dodi va talantini nazariy jixatdan tahlil

qilish bugungi kun ilmiy-nazariy qarashlari yordamida tekshirish dolzarblik kasb etadi.

Ochig'ini aytish kerak, so'nggi yillarda – hikoya janri juda bo'sh va siyqasi chiqib ketdi. Lekin Luqmon Bo'rixon kabi zabardast adiblar ijodi bunday saviyasi past asarlardan balanda turadi. Hikoya aslini olganda ixcham janr. Lekin uning ichiga yuklatilgan ma'no-mazmunda bir Yangi voqyelik bo'lishi shart. Bo'lmasa yozilgan hikoyalar o'qilmasidan yo'qolib ketishi mumkin.

Hayot va jamiyatdagi barcha o'zgarishlarning asosi inson tafakkuridir. Ayonki, tafakkur ruhiyat tadqiqi bo'lgan adabiyot asnosida yuksaladi. Badiiy ijoddagi muayyan yo'nalish o'z-o'zidan yuzaga kelmaydi. Uning ham o'z asosi, tarixi bo'ladi. Istiqlol davri hikoyachiligidagi yangilanish va tamoyillarning vujudga kelishi xuddi shunday omillarga bog'liq. Ya'ni, unutilgan qadriyatlarning tiklanishi, ma'naviyatning asosi bo'lgan dinga e'tiborning kuchayishi, davlat boshqaruvida demokratik yo'nalishning paydo bo'lishi, bozor iqtisodining tarkib topishi singarilar. Bu o'zgarishlar odamlarni boshqacha harakat qilishga undadi. Aniqki, bunday sa'y-harakatning barchasi ong, tafakkur orqali boshqariladi. Zero, shunday ekan, tafakkurdagi evrilish adabiyotda o'z ifodasini topishi muqarrar va tabiiydir. Xo'sh, bu o'zgarishlar istiqlol davri hikoyachiligida qanday yangilik va tamoyillarni yuzaga keltirdi? Bular quydagilardir:

- janrda g'oyaviy-tematik ko'lam kengaydi;
- ijtimoiy, axloqiy, ma'naviy, oilaviy masalaga e'tibor kuchaydi;
- gumanistik mazmun va ruhiy tahlil teranlashdi;
- milliy o'ziga xoslik keng quloq yoydi;
- insonning hayotdagi o'rni, yashashdan maqsadi kabi masalalar mohiyati falsafiy yo'nalishda ochib berildi.

Badiiy adabiyotda milliylik deganda, aksariyat adabiyotshunoslar buni urf-odatda, milliy libosda, faoliyatda, sa'y-harakatda, nutqda ko'rishadi va shu holatlarda o'z mujassamini topadi, deb bilishadi. To'g'ri, bu holatlar milliylikni belgilaydigan omillar hisoblanadi. Lekin mazkur vosita va omillar o'zida



milliylikni to'liq ifodlaydi, deb bo'lmaydi. Chunki bular milliylikning zohiriy ko'rinishlaridir. Ma'lumki, zohiriylik bu shakl. Shakl esa hech qachon masala mohiyatini belgilamaydi. U belgilashga xizmat qiladigan vositadir. Milliylik birinchi navbatda, ruhiyatda o'z mujassamini topadi. Milliylikni belgilaydigan boshqa xususiyatlarning barchasi unga bog'liq, undan kelib chiqadi. Ruhiyat esa insonning tabiatini va o'zligini belgilaydigan ilohiy kuch, ma'naviy oziqdir. Ruhiyati kuchli odam to'g'ri yo'ldan toymaydi, e'tiqodidan voz kechmaydi. Ko'p manbalarda qayd qilingan, ta'kidlangan millatga xos bo'lgan xususiyatlar, ya'ni, jamoa bo'lib yashash ruhining ustunligi; ota-ona, mahalla-ko'y; umuman, jamoatga yuksak hurmat-e'tiborning kuchliligi; ona tiliga muhabbat; kattaga hurmat va kichikka izzat; ayol zotiga ehtirom; sabr-bardosh va mehnatsevarlik; halollik, mehr-oqibat kabilardir. Bu xususiyatlarning barchasi milliy ruhiyatning mahsulidir. Chunki, mazkur fazilatlar insonning jismidan emas, tuyg'usidan kelib chiqadi. Bugungi kun adabiyotining qahramoni mana shu xususiyatga ega.

Ba'zi asarlar borki, ularda qahramonlarning asarning syujet vaqtidan oldingi yoki keyingi hayoti tasvirlanadiki, ular ham syujet elementlari qatorida sanaladi. Biroq bu unsurlar syujetga bevosita bog'liq emas, ular ko'proq kompozitsiyaga aloqador elementlardir. Masalan, "O'tkan kunlar"dagi muqaddima, "Kecha va kunduz"dagi bahor lavhasi – prolog, "O'tkan kunlar" hikoyaidagi Otabekning qabristonda Zaynab bilan to'qnash kelishi – epilog, uning keyingi hayoti haqidagi ma'lumotlar "keyingi tarix" sifatida olinishi mumkin.

"Xarakter – juda keng tushuncha (chunki u prinsip nuqtai-nazaridan o'zida psixikani ham mujassamlashtiradi) va shu bilan birga psixikaga nisbatan tashqi hodisadir. Xarakterdagi asosiy narsa – insonning amaliy faoliyati va bu faoliyatga turli-tuman ichki rag'bat (stimul)lar natijasining konkret va ko'rinishli ta'siridir. Ayni paytda, xarakter faqatgina ichki dunyo tasviri bilangina konkretlashmaydi, balki uni o'rab olgan va harakatga undovchi tashqi muhit, sotsial-tarixiy sharoit bilan ham belgilanadi. Psixika inson faoliyatining ichki stimullari, uning tilsimoti bilan ish olib boradi:

“Biz o‘tirgan poyezd o‘kirib, pishqirib zim-ziyo zulmat qo‘yniga shiddat bilan singib borardi. Charog‘on, gavjum shaharu qishloqlar hash-pash deguncha ortda qoldi. Hurpaygan, o‘ppaygan qir-tepaliklardan iborat kimsasiz yaydoq dala-dasht boshlandi. Temir g‘ildiraklarning “taraqa-turuq” tovushi goh kuchayib, goh susayar, vagonlar bamisli beshikdek tebranar edi.

Kupeda bor-yo‘g‘i ikki kishimiz. Hamrohim — yosh bo‘lishiga qaramay, pogonida qo‘sh yirik yulduz yarqirab turgan zobit yigit o‘ta kamgap, jiddiy va sipo ekan. Yengil salom-alikdan so‘ng, ob-havo, yo‘l azobi haqida uch-to‘rt og‘iz gaplashganimizni hisoblamaganda, u kupe derazasidan tashqariga xayolchan termulgan ko‘yi jim-jit kelardi. Men esa oldi-qochdilarga limmo-lim gazetaga termulganman.

Bir payt zobit yigit ilkis o‘rnidan qo‘zg‘aldi. Kupe derazasiga yuz tiragudek darajada yaqin borib, qorong‘ulik qa‘riga jon-jahdi bilan tikildi. Shu alfozda bir lahza qotib qoldi. Men ham qiziqsinib kupe derazasi ortidagi zulmat tomon alangladim. Biroq arzigulik hech narsa ko‘rolmadim. Ilg‘aganim shu bo‘ldiki, olis-olislarda, balki cho‘pon o‘tovidadir, mitti bir shu‘la pirpirab turardi. “Hamrohim tug‘ilib-o‘sgan yerlar bo‘lsa kerak” — xayolan shu xulosaga keldim. Birozdan so‘ng zobit yigit o‘rniga qaytib o‘tirdi. Yuz-ko‘zlarida andak hayajon, andak quvonch sharpalari kezib yurardi.

- Hayron bo‘lib qoldingiz-a, - deya jilmaydi u, men tomonga aybdorona ko‘z tashlab qo‘yarkan.

- Ha. Harbiylarni qiziqtiradigan nima bor ekan deb men ham alangladim. Lekin miltillab turgan chiroqdan boshqa narsani ko‘rmadim.  
- Men miltillab turgan ana o‘sha chiroqni tomosha qildim.  
- Yo‘g‘-e?!—dedim chinakamiga ajablanib, - Uning nimasini tomosha qilasiz? Zobit kuldi.

- Qop-qora kechada miltirab turgan shunday chiroqqa ko‘zim tushsa, beixtiyor hayajonlanib ketaman. Xuddi sehrlanganday qarab qolaman. Chunki u hamisha hayotimda yuz bergan bir g‘alati voqeani esimga soladi.

- Qanaqa voqea ekan, bilsak bo‘ladimi yo harbiy sirimi? -dedim hazil aralash.
- Bemalol. Istasangiz, aytib beraman.

Zobit yigit javobimni ham kutmasdan xuddi o‘z-o‘ziga so‘zlaganday gap boshladi”<sup>1</sup>.

Mana shu joyda asar xarakteri ochiladi. Shu narsa aniqki, shaxsning ichki dunyosi uning faoliyati bilan aynan bir narsa emas va uning faoliyati bilan tugamaydi. SHaxsni yaxlit tushunishda uning faoliyati (xatti-harakati)gina emas (garchi shaxs o‘zini nisbatan faoliyatda ravshan ko‘rsatsa-da), shu bilan birga psixika tahlilida aniqlanadigan amalga oshmagan xatti-harakatlar va bajarilmagan ishlar doirasi ham muhimdir”<sup>1</sup>. Har bir ijodkor konsepsiyasi o‘zining ijtimoiy ta’minotiga ko‘ra, o‘z davri mafkuraviy–g‘oyaviy hayotining organik qismi sifatida aloqada bo‘ladi. Bu teran ifoda madaniy borliq sarhadlarini nazorat qilishga imkoniyat yaratadi. «SHakl–mazmun» dixotomiyasi butun va bo‘lak munosabatlarini bir nuqtaga yig‘adi. YOzuvchining intuitiv tafakkur madaniyati tasavvurlar barqarorlashuviga olib keladiki, bu holatni uslubiy tafovutlanish aniqligida tadqiq etish hayotiy zaruratdir. Umuman, uslub muammosi quyidagi jihatlarni qamraydi:

- badiiy uslub tushunchasining asosiy maqsadi asarning ichki mundarijasi – yaxlitlik va uyg‘unlik darajasini namoyon etadi. Mazkur holat esa shakliy ifoda bilan cheklanib qolmasdan, semantik maydonni ham hisobga olishni taqozo etadi;

- turfa xil darajalar, xususan kompozitsion unsurlarning «vertikal sintezi» badiiy uslub tabiatining shakllanish jarayonini iste’fodalaydi. Bu nuqtada muallif substrukturasi alohidaligi etakchi o‘ringa ko‘tariladi;

- badiiy uslub ijodkor xarakterida paydo bo‘ladigan, estetik hodisani barqarorlashtiradigan tasavvuriy sifat ko‘rsatkichini izohlaydi. Ayni paytda, tasavvur–tushuncha–so‘zning doimiy o‘zgarmas belgisi yaxlitligi uslub miqyoslarini belgilaydi;

---

<sup>1</sup> Bo‘rixon L. Tun qa‘ridagi shu‘la. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com)

<sup>1</sup> Иезуитов А. Проблема психологизма в эстетике и литературе. В кн.: Проблема психологизма в советской литературе. – Л.: Наука, 1970. С.56.

– badiiy uslub tarkibini uch nuqta: estetik, mafkuraviy va lisoniy munosabat tashkil etadi. Atamaning vazifaviy, tashkiliy va kommunikativ aloqalarini birlashtirib turish, badiiylik darajasini belgilash mazkur tushunchaning tabiatini belgilaydi;

– g‘oya (muammo)ning janr qonun–qoidalari va uslubiy maneraga muvofiqligi badiiy shakl yaratishning asosiy mezoni sanaladi. Unda tushunchaning hissiy takomil bosqichlari, ijodkorning borliqqa faol ruhiy munosabati, tashbeh tanlash – qo‘llash imkoniyati, mazmun originalligi, shakl uyg‘unligi, emotsional bo‘yoqdorlik hamda ekspressiv tezkorlikka o‘zaro bog‘liqligi namoyon bo‘la boradi.

Har bir yozuvchida ob‘ektiv voqelikni ijodiy o‘zlashtirishi uning ijtimoiy–estetik ideali, dunyoqarashi, didi, bilim saviyasi, mahorati, iste’dodi bilan bog‘liq jiddiy mehnatni talab qiladigan, murakkab jarayondir.

### III BOB. ADIB ASARLARIDA SYUJET TABIATI

Luqmon Bo'rixonning navbatdgi hikoyasi esa "Long" hikoyasi bo'lib, bu hikoya hozirgi holatimizni tasvirlashi bilan boshqa hikoyalaridan ajralib turadi. Sababi hozirda bizda kechayotgan pandemiya jarayoni keltirilgan. Asar sarlavhasiga e'tiborni qaratadigan bo'lsak "Long" so'zi qadimgi ingliz tilida "lang" so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib ya'ni " oxiridan oxirigacha cho'zilgan katta chiziqli darajaga ega bo'lish" degan ma'noni anglatadi. Bu sarlavha orqali yozuvchi "koronavirus" deb atalmish kasalligining hozirgi hayotimizga talofot keltirgani, insonlarning karantinga olinishi va bu kasallikning uzoq davr o'z ichiga olgan holda chekinmayotgani bayon qilingan.

Bu hikoyaning prolog, epilog, ekspozitsiya qismlari yo'q, sababi asarning tugunidan keyin voqealar rivojini keltirib ketadi. Chunki hozirgi zamon kitobxoni aynan " long" deganida yozuvchi nimani nazarda tutayotgani va bu bilan nimaga ishora qilayotnini juda yaxshi biladi. O'ylashimcha, aynan shuning uchun ham yozuvchi ekspozitsiyaga hikoya ehtiyoji yo'q deb bilgan. Epilogning keltirilmagani sababi hozirda bu jarayon haligacha davom etmoqda, yakuniga ham yetmadi, bundan tashqari yakuniy xulosani yozuvchi kitobxonning zimmmasiga yuklagandir. Asarda lirik chekinishlar kuzatilmaydi. Janr jihatdan epik turga kiruvchi hikoya hisoblanaadi. Hikoya ko'proq dialoglardan tashkil topgan. Bu dialoglar esa asar mazmunini ochib berishga vosita bo'lgan.

Asarning syujeti oqsoqol Safarmurodning Prezidentimiz aytgan jumllalaridan ta'sirlanishi, bu bilan esa yozuvchi uning xalqchil, o'z xalqini o'ylovchi, vijdoni toza va iymonli, fidokor inson ekanligini ochib beradi. Voqealar shu tarzda davom etadi.

Hikoyaning tuguni esa ushbu jumllalar bilan boshlanadi:

" -Asl Prezidentimiz bor-da, dangal gapiradi, dadil ish tutadi, ertayu kech el qayg'usida, yurt qayg'usida.

-Kechagi murojaati ham yurak-yurak yuragimizga singib ketdi.

-Yurakdan chiqqan gap yurakka singadi-da, momosi,-Safarmurod yonboshlagan joyidan ilkis qad rostladi, ko'pkariga kirayotganday ko'zlari chaqnadi,-ko'rding-ku, rahbarimiz juda g'amgin, axir el boshiga ish tushdi,biz hm angrayib turmay, qo'ldan kelganicha ko'mak berishimiz kerak.

-Bugun hokimning majlisida ham shu gap bo'ldimi?

-Ha, haligi...-oqsoqol chimrildi, chaynaldi,-otingga o't tushkur, shu kasallikning otini hech eslab qololmadim-da.

Toshbibibi checha qo'l siltadi.

-Eslamang ham, otini ayt mang ham.

-Nega?-ajablendi eri.

-Qadim-qadimdan udum shu, elga biror dard dorisa,otini aytishmaydi, long oraladi, deb qo'yishadi. Chunki u otini eshitsa, battar kuchayar ekan.

-Long deganlarni ko'p eshitganmanu, lekin ma'nisini bilmas ekanman, menga ma'qul.

-Ma'qul bo'lsa, anovining otini izlab yot mang, baribir tilingiz ham aylanmaydi, esingizda ham qolmaydi.

-xo'p,-dedi Safarmurod yana qayta yonboshlab,- shuytib, majlisda ham long haqida gap bo'ldi. Hozircha poytaxtda ozroq tarqagan. Lekin kasallik oldini olish uchun butun mamlakat chillaga tortilyapti. Hamma betiga niqob taqishi kerak. Hamma uyida o'tirish shart. Ishlar, o'quvlar vaqtincha to'xtatiladi”.

Aynan ushbu hodisalardan voqealar rivoji ketadi ya'ni keyin kasallik tufayli aholining harakatlanish doirasi cheklanadi, moddiy kamchilik tufayli hayot muvozanati buziladi, oqsoqol esa buning oldini olishga harakat qiladi, lekin ba'zi qo'shtirnoq ichidagi insonlar esa uning mehnatini past baholaydi va qo'li egrilikka chiqaradi. Ayniqsa buni domla Xurramovich obrazi orqali keltiradi. Bu bilan yozuvchi barcha iymonli insonlarni ko'zini hirs qoplagan, nopok insonlarning o'ziga o'xshatishi, o'zi kabi o'ylashi va o'zining domiga atrofida qilarni ham tortishi, oqibatda esa bunday shaxslarning shunday qiyin vaziyatlarda esa uyida

yetishmovchilik bo'lmasa ham davlatdan tama kutishi kabi holatlarni birgina domla Xurramovich obrazi orqali ochib beraolgan.

Yozuvchi hikoyada deyarli peyzaj va portret tasvirlaridan foydalanmaydi, lekin ustalik bilan voqelar rivoji orqali o'sha muhitni va hikoya qahramonlarining qanday xarakterli shaxs ekanligini ochib beradi.

Asarning kulminatsion nuqtasini esa quyidagi jumlar tashkil qiladi:" - Rais,-deb xezlandi domla,-men sizdan biror nima tilanib kelagnim yo'q, hukumatimizning qonuniy yordamini so'rayapman.

-Kimga nima bergan bo'lsam, o'z hisobimdan chiqim qildim,-deb dangaliga ko'chib qo'ya qoldi oqsoqol.

xurramovich unga bir zum sinovchan-savolchan qarab turdi.

-Tushinarli, demak, hukumat mablag'lariga ham egasiz, yaxshi, buni bir surishtirib ko'ramiz.

-Domilla, uyingizga boring, bu erda ko'p turmang, long yomon.

xurramovich nopisand tirjayib tashqariga chiqib ketdi.

Safarmurod uning ortidan xomush qarab qolarkan, ko'z o'ngi bir zum xira tortganini, yuragida, orqa kuragi ostlarida qandaydir sanchiq turganini sezdi. Shu og'riq, behollik kechki taom payti ham, keyin televizorga parishon tikilib o'tirgan chog'i ham tark etmadi.

-Momosi, bugun sal ertaroq cho'zilay,-dedi u ichkari xona tomon jo'narkan.

Shu payt qo'l telefoni jiringlab qoldi. Oqsoqol istar-istamas telefon ekraniga ko'z tashladi. Tashladiyu tuman hokimi o'ribosarining ism-sharifiga ko'zi tushib shosha-pisha qulog'iga tutdi.

-Alyo, assalomu...

Safarmurodning salomi ham og'zida qoldi.

-Ey, rais qanaqa odamsiz o'zi,- nogoh qahru g'azab sochildi narigi tarafdin,- nega xalq orasida vahima qo'zg'ab yuribsiz?! Tafsilotlarni saharlab borib aniqlashtiraman! Lekin siz egallab turgan joyingizga noloyiqsiz.

-Men haligi...

Safarmurod gapirishga ulgurmedi. Aloqa uzildi. Dahliz o'rtasida qaqqayib turgan oqsoqolning qo'lidan telefon apparati tushib ketdi. O'zi ko'ksini changallagan ko'yi devorga arang suyanib qoldi. So'ng sirg'alganicha ko'rmacha ustiga quladi”.

Aynan ushbu jumlar hikoyaning kulminatsion nuqatasi deb bilaman. Sababi birgina telefo'n qo'ng'irog'i fidokor oqsoqolni qulatadi.

Asarning yechimi esa ushbu jumlar bilan yakun topadi.” -E-e, xudo saqlasin,-dedi Normurod duxtir bemorning boshiga engashib, -kunu tuntinmaysiz, biroz toliqibsiz, insultni oyoqda o'tkazib yuboribsiz.

-Insult deysizmi?

Toshbib checha shosha -pisha shifokorni qo'llab-quvvatladi.

-Ha, shunday, bovasi, oyoqda o'tkazib yuboribsiz, dam oling desak, gapga kirmaysiz.

-Insult bo'lsa, yaxshi, xudoga shukr,-mamnun pichirladi Safarmurod oqsoqol,-long yomon, momosi, long yomon.

Uning yuzlariga rang, lablariga tabassum yugurganday bo'ldi.

Asarda konflikt oqsoqol Safarmurod bilan domla Xurramovich o'rtasida kuzatiladi. Bu ikki obraz xatti- harakati bilan ham, xarakter xususiyati bilan ham bir- biriga yozuvchi tomonidan qarama- qarshi qo'yiladi. Bularning barchasi esa kompozitsiyaning rivojlanishiga sababchi bo'ladi.

Asarning kompozitsiyasi kasallikning avj olishi, Prezidentimiz chaqiriqlari, pandemiya sababli insonlarning harakatlanish doirasining cheklanishi to'g'risidagi qarorlarning e'lon qilinishi hisoblanadi.

Yozuvchining navbatdagi hikoyasi esa “Ko'ngil sezib turibdi” nomli bo'lib, bu hikoya orqali faqatgina hayotning salbiy tomonlarini o'ylaydigan, kelajakdagi hayotini o'zining g qorong'u o'ylari bilan yomonlashitradigan shaxslar keltirilgan. Bu holatning boshqalarga ham ta'sir qilishi, hatto o'z dugonasiga ham salbiy ta'sir o'rsata olgan sotuvchi Gavhar hikoyaning bosh ahamoni edi. Aynan shu obraz atrofida boshqa personajlar ham birlashadi va butun bir hikoya syujetini keltirib



chiqaradi. Bu hikoya kitobxonga bir oilaning hayoti, ota – ona orasidagi ishonch, ota- onaning o'zni aslida qanday bo'lishi kerakligi haqida kitobxonga saboq beradigan hikoyadir deb o'ylayman. O'z hayoti qulagan insonlarning baxtli oilalarga salbiy ta'sir ko'rsatishi orqali shu oilaning ham parokanda bo'lishiga sababchi bo'lib qolish oqibatlari hozir ham yo'q emas, afsuski. Ushbu hikoyalardan xulosa qilib aytadigan bo'lsak Luqmon Bo'rixonning hikoyalari zamon bilan hamnafas ekanligiga yana bir bora amin bo'lamiz

Ushbu hikoyada ham prolog hamda epiloglar mavjud emas bo'lib, hikoya portret tasviri bilan boshlanadi: “Shomg'alat bir paytda vokzal biqinidagi befayz qahvaxonaning nimqorong'i, xoligina burchagida bemalol eb-ichib, hiringlashib, pichirlashib o'tirgan, yoshlari qirqlarni qoralab qolgan, aft-angorlaridan, gap-so'zlaridan savdobop mol keltirish dardida poytaxtga otlangan bozorchi xotinlar qavmidan ekanligi, biroq bugun peshin mahali o'sha shahri azimga jo'nab ketgan avtobusga ulgurolmay, endi amal-taqal chiqib olish ilinjida tungi poezdni kutishayotganligi ro'y-rost ko'rinib, sezilib turgan gumbazday-gumbazday ikki ayol devordagi sarg'ish bo'yoq yuqi tekkan soatga ahyon-ahyon ko'z tashlab qo'yishardi”.

Asar oxirigacha dialogdan tashkil topgan. Ya'ni ikkala dugonaning Nazokat hamda Gavharning diologlaridan. Aynan shu vositalar syujet rivojlanishiga sababchi bo'lgan.

Asarning tuguni quyidagi jumlar bilan boshlanadi:” Ammo ertak-cho'pchaklarda aytilgandek, qora dev afsuni etdimi yo zamona zayli evrildimi, o'sha ulkan korxona kosodga uchrab er ishsiz qoldi-yu, bir yilcha bekor ivirsib yurgach, o'zini bozorga urdi, goh poytaxtdan, goh qay bir chegaradosh chet yurtlardan kiyim-kechak, bolalarbop buyumlar keltirib tuman markazidagi besarishta bozorda savdo-sotiq bilan shug'ullanib yurdi. Olatasir kunlarning birida pulini beliga tugib, sotishga arzigulik mol keltirish dardida qay bir manzillarni ko'zlab ketgan er, oradan besh-olti kun o'tib, ezgin-to'zg'in holda, ko'mirday qorayib, bo'm-bo'sh qo'l bilan qaytib keldi.

- Tovarimni tortib olishdi, bor-yo'g'imdan ayrildim, - deb hasrat qildi u yurak-bag'ri ezilib, hamdard bir tarzda yonginasida o'tirgan zavjasiga kechki payt.

Nazokat uni yupatgan, ovutgan bo'ldi. Er bir haftacha uyida qamalib, o'z yog'iga o'zi qovurilib yotdi”.

Aynan ushbu voqealardan keyin hikoyani rivojlantiruvchi voqealar sodir bo'ladi. Nazokatning hayotida tub burilish sodir bo'ladi. O'z muallimlik kasbini tashlab bozorga chiqib ketadi. Buning asl sababi esa turmush o'rtog'ining korxonasi bankrot bo'lganidan keyin oilasi moddiy tarafdin siqilib qoladi, natijada esa bozorga savdo- sotiq qilishga majbur bo'ladi.

Hikoyaning kulminatsion nuqtasi esa:” Dugonaning tuyqus ortga chekingani, ichilgan musallasning harorati Nazokatni battar junbishga keltirdi.

- Yo'q, endi gapiydan tonmagin! Agar endi fikringdan qaytsang, seni umuman hurmat qilmay qo'yaman.

- Nozi, kel, qo'ygin shu mashmashani, uzr, qo'pol hazil qildim, - dedi Gavhar mastona suzilib, - ochig'i, senga... xoslarga xos bir tarzda... ramziy gap qilmoqchi edim... o'qmishlisan, kitob ko'rgansan, deb o'ylagandim... sen masalani chuqurlashtirib yubording...

Nazokat dugonasiga sinchkov nazar tashlarkan, uning xiyla aljib qolganini payqadi.

- xo'sh, garov nima bo'ladi? - dedi Nazokat dugonasining muqarrar boy berishiga butkul ishonch hosil qilib.

- Qanaqa garov? Men aytgan payt sen ko'nmading-ku... qo'l tashlashmading, endi u bekor.

- Bekormas! - Nazokat bir intilib dugonasining qo'sh-qo'sh uzuklar taqilgan lo'ppi panjalarini kaftiga oldi. - Mana! Garov kuchga kirdi!

- Qo'ysang-chi, Nazo, sen yutqazasan, ko'ngil sezib turibdi.

- E, o'rgildim ko'nglingdan... tanish kirakashim bor, hozir chaqiraman, biznikiga borib kelamiz”.

Yozuvchi garovni hikoyaning detali qilib oladi. Aynan ushbu detall orqali voqealar rivojlanadi, obrazlarda konflikt kelib chiqadi, hikoyaning kulminatsion nuqtasi ham aynan shu joyi hisoblanadi. Chunki Nazokatning shuncha yillik turmushiga bo'lgan ishonchiga hadik bilan qarashiga sababchi ham aynan garov bo'lib qoladi.

Hikoyada portret ham keltiriladi:” Tun. Zim-ziyo yoz tuni. Butun borliq go'yo qari jodugarning qop-qora ridosiga burkangan. Havo o'z haroratidan o'zi dimiqib to'lg'anadi. To'lg'anishidan iliq, yoqimsiz epkin qo'zg'aladi".

Hikoyaning yechimi esa Nazokatning garovda g'olib bo'lishi bilan yakunlanadi. Muammoni keltirib chiqargan ham garov, yechim topishiga sababchi bo'lishi ham garov bo'lib chiqadi. Hikoyada syujet, kompozitsiya uyg'unlashib ketgan bo'lib tugun, voqealar rivoji, kulminatsion nuqta barchasi kompozitsiyaning rivojlanishiga sababchi bo'lgan vositalardir. Hikoyada lirik chekinish kuzatilmaydi.

Luqmon Bo'rixonning navbatdagi hikoyalaridan biri bu “Zarur gap” sarlavhasi bilan boshlanadi. Bu hikoya toza qalbli bir askarning o'z hayotini bir og'iz gapi bilan qutqarib qolgani va buning uchun katta mukofotlangani haqida bo'lib, hikoya hajman kichik bo'lgani bilan butun bir hikoyadagi ma'no hamda mazmunni ochib berolgan.

Hikoya xronikali syujet bilan boshlanadi. Chunki voqealar ketma- ketlikda orqaga qayta boshlaydi. Ushbu hikoyada ham prolog hamda epilog keltirilmagan..

Hikoyada obrazlar o'rtasida kuchli darajada konflikt uchramaydi. Faqatgina harbiy xizmatga ketmasidan oldin Akram bir nechta hatto qarindoshlaridan ham dakki eshitadi, lekin bunga munosib javob qaytarmaydi. Sababi yozuvchi Akramning portretini tasvirlashda “Bo'sh- bayov, nimjongina bola”,- edi deya ta'rif beradi.

Hikoyaning ekspozitsiyasi quyidagicha:” Akram harbiy xizmatga ketishdan oldin bo'sh-bayov, nimjongina bola edi. Istagan odam uni laqillatishi yo, qo'li qichib qolsa, bemalol kaltaklashi mumkin edi. Hatto, Hasan qassobning to'yida

buzmakorlikni birov qilib, baloga qolgan Akram bo'lgan edi. Uni to'y egasi qarindoshlari boplab do'pposlashdi. Hoynahoy, shunday nohaqliklar, xo'rliklar Akramning jon-jonidan o'tib ketdi”.

Aynan ushbu voqealar tugunni keltirib chiqardi. Hikoyaning tuguni esa Akramning harbiy xizmatga ketishi hisoblanadi. Chunki ushbu voqeadan keyin hikoyaning voqealar rivoji jadallashadi, ya'ni armiyadan Akram umuman o'zgacha inson bo'lib qaytadi. Avvalgi ko'rinishidan esa asal ham qolmagan. Qaddi – qomati tik, kelishgan va zabardast, ogir- bosiq hamda sipo odam bo'lib qoladi. Qishloq qizlari esa avvallari nazariga ilmagan Akramga esa havas ko'zi bilan qarashardi. Armiya Akram hayotining tub burilishi edi.

Asarning kulminatsion nuqtasi esa Akramning harbiy xizmatdan qaytishi edi.” Mana, bugun u qaytdi! Harbiy libosi o'ziga yarashgan, tetik, tik qomat yigit bo'lib qaytdi. Ota-onasi, hamqishloqlar Akramning jiddiy va sipo aft-angoridan ko'z uzisha olmaydi. Hamma girdikapalak. Ayniqsa, qishloq qizlarini aytmay sizmi? Har xil bahonalar bilan askar kelgan xonadonga bosh suqishib, Akramga o'g'rincha mo'ralashadi. O'zaro shivirlashadi.

Avji bahor tevarakda choppar urib yurardi. Borliq namxush tuproq isiga, chechaklar hidiga to'yingan. Mayin shamol yuz-ko'zlarga yoqimli uriladi. Yashaging va yana yashaging keladi”.

Hikoyaning yechimini esa quyidagi jummlalar tashkil qiladi.” Men... - deb g'udrandi Akram, - boshliq stoliga yaqin borib, - men... yolg'on gapirdim. Kechiring.

Yolg'on?! Qanaqa yolg'on?

Men qutqaruv otryadida xizmat qilmaganman. Men aloqa bo'limida xizmat qilganman.

Lochinbek Rahimov biroz o'ychan Akramni kuzatib turdi. So'ng kulimsirab uning elkasiga qo'lini qo'ydi.

Aloqachi bo'lsangiz, undan ham yaxshi! Baribir siz bizga keraksiz. Sizdan yaxshi qutqaruvchi chiqadi.

Rostdanmi?!

Rost, uka. Mana, siz ishni eng avval o'zingizni qutqarishdan boshladingiz. Balli! Er yigit shunday bo'lishi kerak”.

Hikoya diolog hamda monologlardan tashkil topgan bo'lib, aynan ushbu vositalar hamda syujeti, hikoya ekspozitsiyasi, tugun, kulminatsion nuqtasi hamda yechimi butun bir hikoyaning kompozitsiyasini tashkil qilgan. Ya'ni Faxriddin akaning o'z jiyanini yaxshi joyga joylab qo'yish uchun qilgan say- harakatlari hikoyaning kompozitsiyasini tashkil qiladi. Aynan shu voqeadan keyin Akram hayotda o'z o'rnini topdi, albatta bunga o'z qarindoshining yordami sababchi bo'ldi, lekin eng asosiy sababchisi esa uning toza qalbi hisoblanadi!

Luqmon Bo'rixonning “Shaharlik muallim” hikoyasi katta tarbiyaviy ahamiyatga molik hikoyadir. Asar insonparvarlikni, odamiylikni hamda eng ulug' kasblardan biri bo'lgan o'qituvchilik kasbining naqadar fidokorona kasb ekanligini tarannum etuvchi hikoya desak mubolag'a bo'lmaydi. Bundan tashqari hikoyada ba'zi bir tor fikr yurituvchi, o'z qobig'iga o'ralib qolgan, o'zidan o'zgani o'ylamaydigan shaxslar hayoti ham tipik obraz orqali yoritib berilgan.

Asarni tahlil qilar ekanmiz, avvalo, uning go'yasi nimada ekanligini aytib o'tmoq lozim. Hikoyada asosiy g'oya bu insonlarni bilimli bo'lishga chorlash, o'z farzandlarining kelajakini o'ylash, zurriyodining qiziqish va istedodlariga befarq bo'lmaslik, hamma vaqt vijdonli bo'lish kabi tuyg'ularni kitobxonga singdirish va insolarni to'g'ri yo'lga boshlashdir. Hikoya shakl va mazmun jihatdan bir biriga uyg'un holda yozilgan. Hikoya janridagi bu asar qisqagina bo'lishiga qaramay juda katta ma'no-mazmun yuklangan. Asardan to'g'ri xulosaga kelish uchun kitobxon bu hikoyani tushunib o'qimog'i kerak. Asadagi obrazlarni tahlil qiladigan bo'lsak, hikoyada asosiy ochta obraz, muallim Samandar, Toshmurod tajang hamda uning o'g'li Nurmat. Bu obrazlarning barchasi hayotimizda uchrab turadigan insonlarning tipik ko'rinishidir. Masalan, muallim obrazi shaharda o'qib kelgan, o'z kasbini, bolalarni sevuvchi, o'quvchilarining ilmi bo'lishi uchun hech bir ishdan tab tortmaydigan fidokor shaxs.

Toshmurod tajang. Uning qanday shaxs ekanligini nomidagi “tajang” degan laqabidan ham bilsa bo’ladi. Hikoya boshidagi ushbu jumlar asarning ekspozitsiyasi. *Teraklilik Toshmurod tajangning turip-turip ta’bi tirriq tortdi.* Bu ota o’z bolasi hayotiga, o’qishiga, kelajagiga shunchlik befarqki, o’qituvchisi bolaning o’qishidan qayg’urib gapirgani bu insonni uylatirish o’rniga ta’bini tirriq qiladi. *Axir bundan ortiq bedodlik bo’ladimi, ona suti og’zidan ketmagan bir shaharlik tirrancha unga aql o’rgatdi-ya?* Uning farzandi esa o’qimishli, ilmga chanqoq bola. Shu o’rinda otasining ham so’zidan chiqolmaydigan itoatkor farzand. Bu itoatkorligi tufayli o’z qiziqishlaridan ham vos kechgan.

Asarning syujet tuzilishi uncha murakkab emas. Asardagi bosh tugun bolaning matematikaga bo’lgan qiziqishini rivojlantirish uchun unga yaxshi sharoit yaratib berish. Mana shu maqsad yo’lida o’quvchisi uyiga borib otasi bilan ko’rishgan muallim va Toshmurod o’rtasida kanflikt yuzaga keladi, ya’ni ota bu muallimning gaplarini bir tiyinga olmaydi: “E-e, uka, bizni zotimizdan ilmdor chiqmagan. Qolaversa qishloq bolasi o’qiganda go’r bo’larmidi” qabilida juda hunuk gaplar aytadi. Asar so’ngida esa bu tugun o’z yechimiga ega bo’ladi, ya’ni o’z otasi qolib o’qituvchisi bolani “bepul” repititorga qatnatadi. Asar voqealari rivoji bolani repititorga berish masalasida Toshmurodni maktabga chaqirtirgan joyidan boshlanadi. Kulminatsion nuqtasi esa Samandar xalok bo’lib uning janozasiga brogan Toshmurod tajang va Nurmatning shu yerda repititor o’qituvchini ko’rib qolib bor haqiqatni bilib qolgani, ya’ni Toshmurod tajang uchun “bepul” bo’lgan repititorning aslida pulli ekanligi va bu pulni samandar o’z o’quvchisi uchun to’lab kelayotganligini bilgan paytdir. Mana bun haqiqiy fidokorlik. O’z bolasi kelajagini uchun qayg’urishi kerak bo’lgan ota o’rnini o’qituvchi egallagan.

Badiiy uslub tizimida kompozitsiya tamoyillari, asar tashqi va ichki mundarijasida etakchi atribut hisoblanadi. Negaki, badiiy matnda barqarorlashadigan ruhiyat tasviri va ifoda xususiyati mustaqilligi, janriy–kompozitsion yaxlitlikda aloqaga kirishadi. Ushbu hol, asar saviyasi, badiiy

qimmatini nafaqat oshiradi, balki har bir tafsilot, lavha, voqealar rivojini bir maromda dinamik ravishda izchillikni ta'minlaydi. Kompozitsiya tarqoqligi esa hikoya sturuturasida aniqlikni bir qadar tushuniksiz bo'lishiga olib keladi. Hikoyaiy tafakkur tadriji misolida shuni ko'rishimiz mumkinki, bugungi adabiy asarlar kechagiga nisbatan ancha o'ziga xoslik kasb etyotir. Jumladan, badiiy asarning ham shakl, ham mazmunan rango–rangligi, teran mushohada qatlamlarining kengayishi bilan bir qatorda, jahon estetik sarhadlari sari aloqaga kirisha olishi bilan ham kechagiga nisbatan o'zgachadir.

Har bir asarni yozuvchi shaxsi va dunyoqarashidan ayro tasavvur etib bo'lmaganidek, yozuvchi uslubi ham ushbu jarayonni boshqaruvchi – bosh hakam hisoblanadi. Masalan, sport o'yinlarida, xususan futbolning o'z qonun–qodidallari va tartiblari bor. Buni jiddiy diqqat bilan kuzatuvchi hakam o'yinning bir maromda va tartibda davom etishi uchun mas'ul shaxs hisoblanadi. Demak, badiiy asarda kechayotgan voqea–hodisalarni, obrazlar sistemasini, mavzuga aloqador nimaiki sodir bo'lmasin, barchasini yozuvchi uslubi boshqaradi. Boshqarish har kimda har xil kechadi. Kimdir jamiyat hayoti bilan bir butunlikda tasvirlasa, kimdir bir inson tashqi va ichki harakat–kechinmalari asosida chizishga moyil bo'ladi, kimdir har ikki jihatni uyg'unlikda tasvirlaydi. Bu kabi dolzarb tushunchalar badiiy uslub – ijodkor manerasida maromiga etadi. Adabiyotshunoslikda yana shunday tushuncha borki, «yozuvchi asardan–asarga qarab o'sishi» kerak degan. Biz tahlilga tortgan yozuvchilar ijodida bunday holat sinchiklab ko'rilsa, asardan–asarga qarab o'sish – ba'zan pasayib yoki hech qanday o'zgarishsiz bir maromda turganini ko'ramiz. SH.Bo'taev adabiy talqinlarida deyarli bir xillilik bor. Bu degani shuki, «Qo'rg'onlangan oy» hikoyai bilan «SHox» orasida deyarli farq yo'q. Uslubiy jihatdan ham, ruhoniyl jihatdan ham ular bir–birini to'ldirgan asarlardir. U.Hamdam ijodiy izlanishlarida «Muvozanat»dagi yuk «Isyon va itoat»da ko'zga tashlanmaydi. Lekin «Isyon va itoat»dan keyin yozuvchi yana bir jiddiy mavzuga qo'l urdiki, «Sabo va Samandar» oldingi hikoyadan har tamonlama mukammal yaratigan degim keladi. Bunday holatni L.Bo'rixon izlanishlarida ham uchratish

mumkin. «Jaziramadagi odamlar»dan keyin, oradan besh yil o'tgach, «Temir yo'l» hikoyaini o'quvchilarga taqdim etdi. Hikoyaning ilk jumlasidanoq shuni to'la his etdimki, «Temir yo'l»dagi jozibadorlik, ta'sirchanlik, mazmun–mohiyat, falsafa, ilkinchi hikoyaidan juda pastligi ayonlashadi. Demak, bunday qusurlarni bartaraf etish – yillar davomida izlanishni, ijodiy niyatning mukammal bo'lishi uchun tinimsiz ravishda harakatda bo'lishni talab etadi. Bunday misollar adabiyotimiz tarixida juda ko'plab topiladi. Ammo bizni boshqa bir masala qiziqtirib turibdi.

L.Bo'rixonning o'ziga xos uslubi haqida fikr yuritgan adabiyotshunos I.YOqubov shunday deydi: «L.Bo'rixonning «Temir yo'l yoxud titrayotgan tog'» hikoyaida yozuvchi poetik mahorati yorqin namoyon bo'ladi. U ajib tog' chechaklariga xos tarovat va iforni, tog' tonglariga xos tiniqlikni, tog' qizlari tabassumidagi o'ziga xos mayinlikni, mahzunlikni, adirlardagi maysalarning silkinishidan tortib qo'y–qo'zilarning ma'rashigacha bo'lgan holatlarni poetik mahorat bilan manzaralantira oladi»<sup>70</sup>.

Bu e'tirofqa qo'shilib bo'lmaydi. Adib izlanishlarida bunday tabiat manzarani chizishgina hikoya mukammalligini anglatmaydi. Asarni mutolaa qilish jarayonida shuni his etdimki, ilkinchi hikoyaidan farqli xususiyatlari deyarli ko'zga tashlanmaydi. Hikoyada yozuvchi hali hazm qilinmagan iztirob, kishida o'zini majburlab yozgandek taassurot uyg'otadi. Bu kayfiyat hikoyaning boshidan oyoq bahor gullaridek juda yaqindan sezilib turadi. I.YOqubov o'sha maqolasining oxirida shunday fikrlarni ilgari suradi: «Albatta, hikoyada hali to'la maromiga etmagan jihatlar ham yo'q emas. Jumladan, ijtimoiy muamolar poetik talqinida bir qadar sun'iylik, publitsistik ko'tarinkilik ko'zga tashlanadi. Ayniqsa, keskin konfliktning etishmasligini kuzatish mumkin bo'ladi. Bu esa kitobxonni ishontirishni muayyan darajada susaytiradi» (O'sha kitob, 256–bet.)

Binobarin, I.YOqubov «poetik mahorati yorqin namoyon bo'ladi», degach maqola intihosida «hali to'la maromiga etmagan», «keskin konfliktning etishmasligi»ga mantiqiy urg'u beradi. Biz bilamizki, keskin konfliktsiz asar quruq

---

<sup>70</sup> Ёқубов И. Бадийий-эстетик сўз сеҳри. –Т.: «ТДПУ»нашриёти. 2011. 245-бет.



– ocherkdan farqi bo‘lmaydi. Bunday paytda badiiylikdan so‘z ochish, kishi botinida ehtiyoj tug‘dirmaydi. Hikoyada epik ko‘lamdorlik bo‘lgani bois, unda butun bir davrning bo‘y–basti, qiyofasi, inson o‘y–kechinmalari butun–murakkabligicha tasvirlanmog‘i kerak. SHunday ekan, «konflikt etishmasligi» bo‘lsa, «poetik jihatdan mukammal asar»(I.YOqubov) deyishga haqli emasmiz. Bunday kamchiliklarni sanab o‘tish, yuqorida ta’kidlaganimizdek, «yozuvchi asardan–asarga o‘sishi kerak» degan ibora zamirida bu kabi masalalarni o‘rtoqlashish adolatdan bo‘lar, degan maqsadda keltirildi.

Birinchi bobda ham uslub masalasiga U.Hamdam ijodi asosida to‘xtalib o‘tgan edik, ammo har bir yozuvchi o‘ziga xos uslubiga ega bo‘lgani bois, yana mavzuga yaqin jihatlarni tahlil qilishni lozim topdik. «Uslub yozuvchining shaxsiy tajribasi, nutq ohangidagi o‘ziga xoslikda ko‘zga tashlanadi», – deb yozadi rus adabiyotshunos olimi L.I.Timofeev. U har bir yozuvchi ijodining o‘ziga xos, betakror g‘oyaviy–badiiy xususiyatlarini, hayot haqidagi konsepsiyasining konkret badiiy ifodasini «uslub» atamasi bilan izohlaydi. Adabiyotshunos H.Umurov fikricha, «Uslub bir vaqtning o‘zida – mazmun ham, shakl ham, g‘oya ham, motiv ham. Bularning barchasi birlashganda asar butunligini uslub ta‘minlaydi. SHunga ko‘ra yozuvchi uslubni so‘zga, tilga – ulardan foydalanishdagi o‘ziga xoslikka bog‘lab qo‘yish noo‘rindir. To‘g‘ri, adabiyot – so‘z san‘ati, til adabiyotning birinchi elementi bo‘lsa–da, uslubni yuzaga keltiruvchi vositalardan biri – zaruriy elementi sanaladi»<sup>71</sup>.

Muayyan milliy adabiyotdagi, uslubiy tajriba va an‘ana shu adabiyotga mansub chinakam iste’dodlarning asarlarida, tadqiqotchining istagidan qat‘iy nazar, zuhur topadi va davom etadi. Zero, individual uslub yorqinligi milliy adabiyot tajribasi, xalq ijodi va o‘tmish adabiyoti an‘analari, milliy ruh, urf–odat, til xususiyatlariga e‘tibor orqali ta‘minlanadi. Adabiyotshunos S.Mamajonov fikricha, uslub idrok va ifoda qilish mushtarakligida namoyon bo‘ladi.

---

<sup>71</sup> Умuroв X. Adabiyotshunosik nazariyasi. A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, -T.: 2004. 246-bet.

Har bir badiiy asar o'zida ijodkor shaxsini ifodalaydi, buni uslubda namoyon etadi. Yozuvchining jumla tuzishi, rivoya qilish yo'sini, badiiy detallar funksionalligiga e'tibor berishi, syujet qurilishini shakllantirishi uslub va o'ziga xoslikka shubhasiz ta'sir ko'rsatadi. Demak, uslub ijodkor fitratida voqe bo'ladigan, jamiyat estetik a'molini belgilaydigan hamda mustaqil g'oyaviy ibtidoni ilgari suradigan birlik hisoblanadi. Darhaqiqat, adabiy fikrning tadrijiy takomilini ta'minlaydigan yaxlit jarayon – badiiy g'oya, hissiy mazmun, shakl va ma'no mutanosibligi, tipiklik va individuallik poetik tasvir vositalarining uyg'unligini ifodalaydi.

Badiiy uslub – erkin ijodiy sintezlangan voqea–hodisotlarni hamda xayoliy olam muvozanatining nisbatan daxlsiz rivojlanishini ta'minlaydi. An'anaviy qarashlar va real hayotni bir–biriga muqoyasa qilish orqali kompozitsion markazni shakllantirish muallifning adabiy mahoratidan darak beradi. Asarda mazmunga singib ketgan qahramon ruhiyatining muhitga ishonish va aldanishdan milliy o'zlikni anglashga qadar siljishi badiiy shaklda yaxlitlashadi.

Demak, psixologizm atamasini tasvir (inson ichki dunyosi) predmeti emas, balki shaxsning ruhiy hayotini estetik o'zlashtirish (badiiy tahlil) usuli sifatida tushunish lozim. Bunday tahlilning ikki xil ko'rinishi mavjud: ochiq, “namoyishkorona” va “yashirin”, tagma'noli psixologizm. Birinchi holatda so'z inson ichki hayotidagi eng kichik o'zgarishlar, tebranishlarni ham qayd etadi, ikkinchisida – hislarning o'ziga daxl qilmasdan, personaj qalbida nimalar yuz berayotganiga shama qiladi, shipshitadi. Lekin ikki holatda ham tahlil bir maqsadga – odam qalb hayotidagi qarama-qarshiliklarni ochishga – psixologik konfliktni namoyon qilishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Modomiki, bunday konflikt turlicha (ochiqcha va “maxfiy”) namoyon bo'lar ekan, personajlarning asarda tutgan o'rnidan kelib chiqib psixologik konfliktning o'zini ham ikkiga ajratish kerak bo'ladi. Harakatdagi shaxsning fahmi etadiganini anglashiladigan konflikt deb atash o'rinlidir. Bunday konfliktning asosiy belgisi kechinmalar teranligini ochadigan monologdir.

Psixologik konfliktning ikkinchi xilini, L.Vigotskiy terminologiyasidan foydalanib, “g‘ayrihuuriylik” deb ataymiz. Bunga, personajning o‘z qalbida kechayotgan kurash sabablarini fahmlamasdan turib, to‘la-to‘kis o‘sha muhorabaning izmida ekanligi bilan bog‘liq vaziyatlar misol bo‘la oladi. Monologlar, luqmalar bu erda hislar chalkashligini qayd etishi mumkin, biroq ularning sababini aniqlashtirmaydi; personaj o‘zining ichki kurashini begona ko‘zlardan puxtalik bilan yashirishi tufayli tashqi ko‘rinishida o‘zgarishlar yuz beradi, kayfiyati o‘zgaradi, xatti-harakatida poyma-poylik, o‘zini tutishida ichki holatga mos kelmaslik ro‘y beradi:

Hayot haqiqatini badiiy obrazlarga singdirish – bu san’atkor iste’dodining darajasidan, salohiyatining miqyoslaridan dalolat beradi. Bir Sharq donishmandidan iste’dod bu nimadir, deb so‘rashgan ekan. U, hamma odamlar qurbi yetmaydigan, eplay olmaydigan yumushni osongina qo‘l uchida bajargan kishi iste’dodli hisoblanadi, deb javob beribdi. Endi, iste’dodli odamlar ham uddalay olmagan ishni ko‘z ochib yumguncha ado etgan kishi kamyob iste’dod egasi bo‘ladi, degan ekan. Demak, iste’dodlarda Olloh yuqtirgan hissiy hamda fikriy idrokning ilohiy ne’mati mujassamlashgan. Illo, ilohiy salohiyat yolg‘iz xudoning suyukli bandalarigagina marhamat etilgusi. Ma’rifat, hikmat, nafosat yog’dulari ila ko‘ngli naqshlangan, charog‘onlashgan bo‘ladi.

Ko‘rinadiki, bugungi kunda nafis adabiyot ilmi oldidagi vazifalar g‘oyat muhim va mas’uliyatli. Xususan, ijodkor fenomeniga, badiiy adabiyotga, adabiy asarga, ijtimoiy-adabiy jarayonga tarixiylik hamda estetik tuyg‘u nuqtai nazaridan yondashish, o‘rganish va baholash vazifalari turibdi. Zero, har bir yirik so‘z san’atkorining ijodiy izlanishlari va adabiy asarlarini muayyan tarixiy shart-sharoit, ijtimoiy-ma’naviy muhit mahsuli sifatida tahlil etish madaniyatini shakllantirish joiz. “Har bir badiiy asar, – deb yozadi Gegel “Estetika”sida, – o‘z davriga, xalqiga va o‘z muhitiga mansub; ushbu jarayonda u ko‘p jihatdan alohida tarixiy va boshqa tasavvurlarga, ijodiy maqsadlarga daxldor”. Shu ma’noda, badiiy adabiyot fenomeni o‘zining barcha tarixiy taraqqiyot bosqichlarida u yoki

bu “rahnamo yoki homiylar” sha’niga madh-sano yog’dirishdan, hukmron mafkuralarga dastyorlik qilishdan iborat bo’lgan emas. U hayotning ma’naviy asoslarini, inson tirikligining ildizlarini tadqiq etishga qaratilgan badiiy mundarijasiga ko’ra, “millatning ma’naviy ustoz” (Gegel ta’biri) deyishga hamisha haqli.

Istiqlol davri badiiy-estetik tafakkuri masalalarini go’zallik, fojeliq, komiklik, ezgulik shakl va mazmun birligi, janriy ko’rinishlari kabi asosiy nazariy-adabiy tushunchalar, badiiy til va ifoda vositalari (o’xshatish, metafora, timsol, ramzlar) nuqtai nazaridan yangicha yondashish, o’zlashtirish va umumlashma xulosalar chiqarish – adabiy-tarixiy jarayonning tabiiy ehtiyojiga, zaruratiga aylandi. Mazkur tamoyil XX asr adabiy-madaniy hayotini, adabiy materialni, badiiy asarni tanlash, o’rganish hamda tushuntirishdagi yangi nazariy-metodologik konsepsiyasi bilan e’tiborli. Mazkur fazilat quyidagi tamoyillarda zuhur topgan

## UMUMIY XULOSALAR

Istiqlol davri nasrining yangi qirralari shunda ko'rinadiki, obyektiv olam, vokea va xodisalar, tashqi tasvir, qahramon xatti-harakatlari, uni o'rab turgan muxit va sharoit, zamon va makon endi to'g'ridan-to'g'ri badiiy to'qimaga aylantirilmay, balki ularning inson tasavvuri, shuuriga ta'siri, qahramonning unga ongli munosabati, ya'ni aks ta'sir sifida, ta'sirga ta'sir tarzida badiiyatga aylantirildi. Endi kitobxon qahramon bilan emas, balki uning «tafakkuri» bilan muloqotga kirishadigan, uning tafakkur jarayoni bilan bahslashadigan bo'ldi.

Shunday qilib, so'nggi paytlarda ayrim ijodkorlar orasida rivoyada oddiy tasvir yo'lidan bormaslik, ko'inikib qolganimiz syujet, kompozisiya qurilishlari xronologik mutanosiblik asosida xikoya qilinadigan vokea-hodisalar silsilasi, an'anaviy tasvir usullari o'rniga qahramon ong oqimini aks ettirish, buning uchun esa o'zgacha tasviriylilik yo'llarini tanlash ko'zga tashlanmoqda. Xullas, xech narsa o'z o'rnida qotib qolmaganidek, aytish mumkinki, navqiron prozimiz kun sayin ildam qadamlar bilan rifoj topmoqda. Shu o'rinda biz tahlilga tortgan Luqmon Bo'rixonning «Jaziramadagi odamlar» hikoyai anna shu tasvir usuli bilan alohida diqqatga sazovardir. Hikoya janri xususiyatini aniqlashda ikkiyovozlilik asosiga qurilgan talqin hikoyaiy qahramon badiiyligini ta'minlaydi. Uning ongida yuz berayotgan ziddiyatlar kurashi ijtimoiy muxit ta'sirida tobor keskinlashar ekan, u o'zining tabiatiga xos bo'lgan tabiiy beguborlik, sofdillik, andisha tuyg'ulariga qarshi kurashadi.

Har bir asar shartli ravishda ijodiy tafakkur mevasidir. Bu tafakkur tarzi o'ziga xos shaklda nutq orkali namoyon bo'ladi hamda adabiy tur va janrlar talablariga ko'ra yorqin ekspressivlik, xolislik va ko'p ma'nolilik kasb etadi. Estetik qimmatini yuqori bo'lgan asarlar dagi obrazli iboralar tizimida ifodalangan hayot manzaralari sirtidan juda soda ko'rinsada, odatda g'oyat murakkabligi bilan etiborni tortadi. Ijodiy izlanuvchanlik esa o'z navbatida jahon tajribasi bilan bog'liq ravishda shakllanadi. Shakllanayotgan hikoyachilikdagi yana bir jihatni

keltirib o'tish o'rinlidir. Istiqlol davri hikoyalari yangi ohanglar hisobiga boyidi. Uning ifoda tarzi jahonning ilg'or an'analarini o'zlashtirish va milliy adabiyot tajribalarini davom ettirish hisobiga o'zgacha usullar sintezini barqarorlashtirdi. Ifodaning qabariqligi, tasvirning serqatlamliligi, mazmun, ruhiy holat manzaralarining rang-barangligi bilan insonni badiiy tadqiq etishga an'anaviy usullar o'z o'rnini bo'shatib berayotganligi bilan alohidalik kasb etadi. Shuningdek, davr adabiy tizimi qahramon xayoloti hamda kechinmalarida aks etgan jarayonlarni tasvir obyektiga aylantirish, reallashtirish, uni yanada to'laroq ilg'ashga intilayotganligi bilan o'ziga xosdir. Millat kishisining tafakkur tarzi, axloqiy qanoati nafaqat an'anaviy yo'sinda, balki dunyo adabiyotidagi eng so'nggi ifoda usullaridan dadil, samarali foydalanish, an'anaviylik bilan yangilikni uzviylikda omuxtalashtirish vositasida namoyon bo'lmoqda.

Xullas, yangi o'zbek hikoyai yaratish yo'lidagi yozuvchining badiiy-uslubiy izlanishlari jarayonida ko'prok polifonik tafakkur mantig'i ustuvorlik qilgani, hikoya tafakkuriga singdirilgan manba, mavzu, g'oya talqinida yozuvchi falsafiy mushohada, psixologik tahlil uslubiy shakllariga murojyat etishi hikoyaning janr sifatida falsafiy yoki psixologik tamoylini belgilamaydi, balki polifonik poetika talqinini to'ldiruvchi badiiy komponentlar vazifasini o'taydi:

Istiqlol davri hikoyalari yangi ohanglar hisobiga boyidi. Uning ifoda tarzi jahonning ilg'or an'analarini o'zlashtirish va milliy adabiyot tajribalarini davom ettirish hisobiga o'zgacha usullar sintezini barqarorlashtirdi. Ifodaning qabariqligi, tasvirning serqatlamliligi, mazmun, ruhiy holat manzaralarining rang-barangligi bilan insonni badiiy tadqiq etishga an'anaviy usullar (bayon, ifoda etish, ko'rsatish, tasvirlash)ning o'z o'rnini bo'shatib berayotganligi bilan alohidalik kasb etadi. Shuningdek davr adabiy tizimi qahramon xayoloti hamda kechinmalarida aks etgan jarayonlarni tasvir obyektiga aylantirish, reallashtirish, uni yanada to'laroq ilg'ashga intilayotganligi bilan o'ziga xosdir. Millat kishisining tafakkur tarzi, axloqiy qanoati nafaqat an'anaviy yo'sinda, balki dunyo adabiyotidagi eng so'nggi

ifoda usullaridan dadil, samarali foydalanish, an'anaviylik bilan yangilikni uzviylikda omuxtalashtirish vositasida namoyon bo'lmoqda.

Shu o'rinda, so'nggi bosqichda, ayniqsa, ijodiy tajriba qilish, kutilmagan tasvir yo'llarini izlash va qo'llash, badiiy ifodaning yangi tamoyillaridan foydalanish yetakchi xususiyatga aylandi. Yuqorida ta'kidlangan jihatlar, tabiiyki, shakl-mazmun-uslub kompozision yaxlitligiga jiddiy islohlarni olib kirdiki, mazkur o'zgarishlar ko'lamini janriy o'ziga xoslikda tadqiq etish hamda umumlashtirish muayyan nazariy ehtiyojlarni keltirib chiqaradi. Aynan turli qismlar orasidagi nisbatni tayin etish hamda juzning g'oyaviy-estetik mavqeyini belgilash badiiy shakl talablaridan kelib chiqadi. Shu ma'noda, dissertasion ishda Luqmon Bo'rixonning hikoyari poetikasi obyekti sifatida tanlandi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

### **I. Ijtimoiy–siyosiy adabiyotlar:**

1. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. – T.: O'zbekiston, 2000. – 74 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2001. – 37 b.

### **I. Ilmiy–nazariy adabiyotlar:**

3. Alimasov V. Falsafa yohud fikrlash chanqog'i. – Toshkent: Falsafa va huquq, 2007. – 278 b.
4. Alimasov V. Falsafa yohud fikrlash san'ati. – Toshkent: Noshir, 2008. – 255 b.
5. Aristotel. Poetika. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1980. – 149 b.
6. Boboev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O'zbekiston, 2002. – 560 b.
7. Jo'raqulov U. Hududsiz jilva. – Toshkent: Fan, 2006. – 203 b.
8. Jo'raev T. Jeyms Joys. – Toshkent: Navro'z, 1993. – 51 b.
9. Jo'raev T. Ong oqimi Modern. – Farg'ona, 2009. – 203 b.
10. Zatonskiy D.V. Nashe vremya. – M.: Sov. pisatel, 1979. – 430 s.
11. Zatonskiy D.V. Modernizm i postmodernizm. – Folio–Ast, 2000. – 255 s.
12. Yo'ldoshev Q. Adabiyot o'qitishning ilmiy–nazariy asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1996. – 152 b.
13. Yo'ldoshev Q. YOniq so'z. – Toshkent: YAngi asr avlodi, 2007. – 546b.
14. Kontekst – 1974. – M.: Nauka, 1974. – 156 s.
15. Karimov B. Qodiriy qadri. – Toshkent: Xalq merosi, 2002. – 84 b.
16. Karimov B. YAngilanish sog'inchi. – Toshkent: Adabiyot jamg'armasi, 2004. – 79b.



17. Karimov B. Jadid munaqqidi Vadud Maxmud. – Toshkent: Universitet, 2000. – 103 b.
18. Karimov B. Abdulla Qodiriy. –Toshkent: Fan, 2006. – 231 b.
19. Karimov N. Cho‘lpon. Ma‘rifiy hikoya. – Toshkent: SHarq, 2003. – 463 b.
20. Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari. Birinchi kitob. – Toshkent: O‘zbekiston, 2008. – 533 b.
21. Karimov H. Istiqlol davri she‘riyati. –Toshkent: Zarqalam, 2005. – 79 b.
22. Karimov H. Istiqlol davri nasri. – Toshkent: Zarqalam, 2007. – 96 b.
23. Karimov H. O‘zbek hikoyalarining taraqqiyot tamoyillari. – Toshkent: Milliy kutubxona, 2008. – 122 b.
24. Mamajonov S. Saylanma. – T.: Adabiyot va san‘at, 1981. – 486 b.
25. Mamajonov S. Bizning Cho‘lpon. – Toshkent: YOzuvchi, 1997.
26. Mahmudov M. Ahli dil. –Toshkent: O‘qituvchi,1997. – 309 b. 71.
27. Matjonov S.Tiriklik suvi.–T.YOsh gvardiya,1986.172 bet.
28. Mirvaliev S. Abdulla Qodiriy. – Toshkent: Fan, 2004. – 170 b.
29. Mirvaliev S. SHokirova R. O‘zbek adiblari. Toshkent: Fan,2007. – 270 b.
30. Milliy uyg‘onish. – Toshkent: Universitet, 1993. – 127 b.
31. Mustaqillik davri adabiyoti. – Toshkent: Nashriyot–matbaa ijodiy uyi, 2006. – 287 b.
32. Mirqosimova M., Rustamova M. Janr va mahorat. – Toshkent: Milliy kutubxona, 2007. – 69 b.
33. Mirzaev S. XX asr o‘zbek adabiyoti. – Toshkent: YAngi asr avlodi,2005. – 418 b.
34. Nazarov B. O‘zbek adabiyoti tanqidchiligi. – Toshkent: Fan, 1979. – 284 b.
35. Nazarov B. G‘afur G‘ulom olami. – Toshkent: 2004. – 179 b.

36. Nazarov B. Istiqlol samarasi // Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash.–T.: Universitet, 1999.–B.4–5.
37. Nazıvat veshı svoimi imenami. – M.: Progress, 1986. – 638 s.
38. Normatov U. Qodiriy bog‘i. – Toshkent: YOzuvchi, 1994. – 217 b.
39. Normatov U. «O‘tgan kunlar» hayrati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1996. – 79 b.
40. Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. – Toshkent: Ma’naviyat, 2000. – 109 b.
41. Normatov U. Qahhorni anglash mashaqqati. – Toshkent: Universitet, 2000. – 49 b.
42. Normatov U. Tafakkur yog‘dusi. – Toshkent: 2005. – 119 b.
43. Normatov U. Ustoz ibrati. –Toshkent: Milliy kutubxona, 2007. – 126 b.
44. Normatov.U. Ijod sehri. – Toshkent: SHarq, 2007. – 351 b.
45. Normatov U. Nafosat gurunglari. – Toshkent: Muharrir,2010. – 385 b.
46. Normatov U. Qodiriy mo‘‘jizasi. –T.: O‘zbekiston.–2010. B. 270.
47. Rasulov A. Tanqidchilik ufqlari. – Toshkent: Adabiyot va san‘at, 1985. – 149 b.
48. Rasulov A. Ardoqli adib (O‘tkir Hoshimov hayoti va ijodiga chizgilar). – Toshkent: SHarq, 2001.
49. Rasulov A. Ilmi g‘aribani qumsab. – Toshkent: Ma’naviyat, 1998. –64 b.
50. Rasulov A. Tanqid, talqin, baholash. – Toshkent: Fan, 2006. – 231 b.
51. Rasulov A. Badiiylik – bezavol yangilik. – Toshkent: SHarq, 2007. – 334 b.
52. Rasulov A. Betakror o‘zlik. – Toshkent: Mumtoz soz, 2009. – 286 b.
53. Rahimjonov N. Mustaqillik davri o‘zbek she’riyati. –Toshkent: Fan, 2007. – 258 b.

54. Rahimjonov.N. Badiiy asar biografiyasi. – Toshkent: Fan, 2008. – 261 b.
55. Rahimjonov N., Ko‘baev Q. Tarixiy qissalar haqiqat izlaydi. – Toshkent: Adolat,2005. – 190 b.
56. Rahmonov B. O‘zbek adabiy tanqidchiligi. (qo‘llanma). – Toshkent: YAngi asr avlodi, 2004. – 237 b.
57. Rizaev SH. Jadid dramasi. – Toshkent: SHarq, 1997. – 316 b.
58. Ro‘zimuhammad B. CHO‘lpon – tong yulduzi demak... – Toshkent: O‘qituvchi, 1997. – 71 b.
59. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. – Toshkent: 2004. – 127 b.
60. To‘raev D. O‘zbek hikoyalarida badiiy tafakkur va mahorat muammosi. – Toshkent: Universitet, 2001. –166 b.
61. Umurov H. Tahlil san’ati. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1978. – 143 b.
62. Umurov H. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: SHarq, 2002. – 252 b
63. Umurov H. Saylanma. –Toshkent: Fan, 2007. 1– jild. –205 b.
64. Umurov H. Saylanma. // Adabiy–tanqidiy tadqiqotlar. 2 – jild. – Toshkent: Fan, 2007. – 206 b.
65. Umurov H. Saylanma. // Xotiralar, qatralar, saboqlar, hajvlar. 3 – jild . –Toshkent: Fan, 2007. – 204 b.
66. Umurov H.Saylanma. // Ehtiyoj tafti. 5 – jild. – Samarqand: 2011. – 214 b.
67. Urnov D.M. Literaturnoe proizvedenie v otsenko anglo–amerikanskoy “novoy kritiki”. – M.: Nauka, 1982. – 262 s.
68. Ulug‘ov A. Asl asarlar sehri. – Toshkent: Nashriyot–matbaa ijodiy uyi, 2007. – 157 b.
69. Uellik R., Uorren O. Teoriya literatury. – M.: Progress, 1978. –325 s.
70. Bo‘rixon L. Xizr ko‘rgan yigit. –T.: «SHarq». 2007. 256-b.

71. Bo‘rixon. L. Jaziramadagi odamlar. –T.: «Adabiyot va san’at nashriyoti». 2005. 336-b.